KADEXTAR STUDIO



IJTIMOIY XODIM 2027

Malaka sertifikati uchun nazorat sinoviga tayyorgarlik: test va keys tahlili. Har bir javob — izoh va manba bilan.

SINOV NASHRI

25 savol · 3 keys · 1 mashq bileti

NAZORAT SINOVI FORMATI

Nazorat sinovi qanday o‘tadi

Ikki bosqich: avval ijtimoiy ish sohasidagi test, keyin keys tahlili. Sinov odatda har chorakda bir marta o‘tkaziladi va bepul.

50	50	70	2
ball — test	ball — keys tahlili	ball — o‘tish chegarasi	ish kuni — natija

SHU NASHRDAGI SAVOLLAR

1. Ijtimoiy ish to‘g‘risidagi qonunchilik va malaka sertifikati	5 savol
2. Ijtimoiy himoya tizimi va ijtimoiy xizmatlar	5 savol
3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar bilan ishlash	5 savol
4. Ijtimoiy ish metodlari va keys menejment	5 savol
5. Kasbiy etika, maxfiylik va hujjat yuritish	5 savol

Manba: VMQ-461, 1-ilova, 14–17, 25–26-bandlar. Test savollari soni, vaqti va keys mezonlari e’lon qilinmagan; sinov materiallarini vakolatli organ shakllantiradi (19-band).

QO‘LLANMA

Qanday ishlash kerak

1 **Konspektni o‘qing**
Har blok boshida — qonun moddalari, qaror bandlari va ish metodlari jadvallarda. Savollardan oldin o‘qing.

2 **Yeching va solishtiring**
Javobni qog‘ozga yozing: mashq uchun har savolga 1,5 daqiqa. Har blok oxirida — javob, izoh va manba.

3 **Keys tahlilini yozing**
Har vaziyatga besh qismli javob yozing: ehtiyoj, xavf, huquqiy asos, reja, etika. Keyin namunaviy javob bilan solishtiring.

4 **Suhbatga tayyorlaning**
Oxirida — ishga qabul suhbatiga tayyorlanish qoidalari va bitta mashq bileti, javob rejasi bilan.

DIQQAT
Ko‘p uchraydigan chalkashlik: o‘xshash atama, yaqin muddat yoki raqam, “yaxshi ko‘ringan” xato qaror.

§ Manba — qonun moddasi, qaror bandi yoki ijtimoiy ish modeli.

Savollar va keyslar rasmiy test bazasidan olinmagan: ular me’yoriy hujjatlar va ijtimoiy ish modellari asosidagi mualliflik mashqlari.

BO‘LIMLAR

Mundarija

Savol raqamini yoki “javob” yozuvini bossangiz — javobiga o‘tasiz. Pastdagi “Mundarija” — mundarijaga qaytaradi.

Nazorat sinovi qanday o‘tadi 2

Qanday ishlash kerak 3

Ijtimoiy xodim: maqom va toifalar 6

Topshiriq turlari 9

1. Ijtimoiy ish to‘g‘risidagi qonunchilik va malaka sertifikati 11

Konspekt 12 | Savollar 15 | Javoblar 21

2. Ijtimoiy himoya tizimi va ijtimoiy xizmatlar 25

Konspekt 26 | Savollar 29 | Javoblar 35

3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar bilan ishlash 40

Konspekt 41 | Savollar 44 | Javoblar 50

4. Ijtimoiy ish metodlari va keys menejment 54

Konspekt 55 | Savollar 58 | Javoblar 63

5. Kasbiy etika, maxfiylik va hujjat yuritish 66

Konspekt 67 | Savollar 71 | Javoblar 77

Javoblar kaliti 80

Keys tahlili 81

Yechish usuli 82 | 1-keys 85 | 2-keys 91

3-keys 97

Suhbatga tayyorgarlik 102

Javob varaqasi (chop etish uchun) 117

KASB HAQIDA

Ijtimoiy xodim: maqom va toifalar

Ijtimoiy xodim — ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsga (oilaga) ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish, ularni tashkil etish va monitoring qilish uchun tegishli ma’lumot, kasbiy salohiyat va ish tajribasiga ega mutaxassis (O‘RQ-1159, 3-modda).

4 toifa
toifasiz, III, II va I; III–I toifalar malaka sertifikati asosida beriladi (VMQ-461, 2-band “a”)

5 yil
sertifikat muddati; tugagach 6 oy ichida yangilanmasa — lavozim saqlanib, bir pog‘ona quyi toifa (2-band “b”)

70
o‘tish bali: test 50 + keys tahlili 50 = 100 ball (1-ilova, 17, 26-bandlar)

II+
2027-yil 1-apreldan ixtisoslashtirilgan lavozimlar, shu’ba mudiri va supervayzer uchun (4-band)

BILISHINGIZ SHART BO‘LGAN ASOSLAR

Toifasiz	faqat “Inson” markazida; boshqa davlat organlari va tashkilotlari hamda nodavlat tashkilotlarda faqat III, II yoki I toifali ijtimoiy xodimlar ishlaydi (VMQ-461, 2-band “a”)
Staj	III toifa — 1 yil, II — 2 yil, I — 3 yil maxsus ish staji: Reglament tartibi joriy qilingandan keyin ijtimoiy xodim yoki “Inson” markazi xodimi sifatida ishlagan davr; toifalar III dan I ga izchil beriladi (1-ilova, 2, 3, 5-bandlar)
Ma’lumot	III toifa — oliy ma’lumot; II va I toifa — tor doiradagi oliy ma’lumot (1-ilova, 4-band)
Kurs	vakolatli organ — Malaka oshirish markazining kamida 36 akademik soatlik kursi, hujjat topshirishdan oldingi 1 yil ichida; to‘lov — BHMning 2 baravari, shartnoma asosida (1-ilova, 1, 9, 12-bandlar)

Joriy etish	toifalar va quyi toifaga tushirish tartibi (2-band “a”, “b”): 2026-yil 1-oktabr — Xorazm va Toshkent viloyatlari; 2027-yil 1-yanvar — Andijon viloyati va Toshkent shahri; 1-aprel — barcha hududlar; 1-iyun — IIV va “SOS” uyushmasi (3-band)
Ish haqi	Agentlik tizimiga kirmaydigan davlat organlari va tashkilotlarida — mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining kamida 4,2 baravari (VMQ-461, 5-band)
Kafolatlar	yiliga bir marta davlat budjeti hisobidan tibbiy ko‘rik (2-band “v”); ish beruvchi superviziyani tashkil qilishi shart (O‘RQ-1159, 40-modda)
Cheklovlar	sud hukmi bilan bu faoliyat huquqidan mahrum etilganlar, muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb topilganlar va boshqalar ishlay olmaydi (O‘RQ-1159, 42-modda)

KITOB BO‘YICHA

Topshiriq turlari

Rasmiy test spetsifikatsiyasi e’lon qilinmagan. Kitobda to‘rt xil topshiriq bor; savol kartasining tepasida turi ko‘rsatilgan (Y1dan tashqari).

Y1

To‘rt variantdan bittasi to‘g‘ri

Muqobil javobli yopiq test: bitta to‘g‘ri javobni tanlang.

Y2

Moslashtirish

Raqamli ro‘yxatdagi 1, 2, 3… ni harfli ro‘yxatdagi a, b, c… bilan juftlang, masalan “1-b, 2-a, 3-c”.

Y3

Ketma-ketlik

Jarayon bosqichlarini to‘g‘ri tartibda joylashtiring, masalan “3, 1, 4, 2”.

K

Keys tahlili

Vaziyat va 2–3 topshiriq: yozma javob. Kitobda besh qismli usul bilan yechiladi.

KOGNITIV DARAJALAR: KITOBDAGI ULUSH

15 % · Bilish	atama, qonun moddasi, muddat va qoidalarni bilish, tushunish

70 % · Qo‘llash	bilimni amaliy vaziyatda — oila, mahalla, “Inson” markazi, idoralararo ish holatlarida ishlatish
15 % · Mulohaza	fakt va me’yorlarni tahlil qilish, ketma-ketlikni farqlash, xulosa chiqarish

1

Ijtimoiy ish to‘g‘risidagi qonunchilik va malaka sertifikati

“Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonun: tushunchalar, prinsiplar, xizmatlar, nazorat, ijtimoiy xodim maqomi; VMQ-461: toifalar va nazorat sinovi.

- O‘RQ-1159 “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”
- Tushunchalar, prinsiplar, subyektlar
- Xizmatlar, nazorat va ijtimoiy xodim maqomi
- VMQ-461: toifalar va nazorat sinovi

5	5	50
savol shu nashrda	mavzu	mavzu savoli to‘liq nashrda

KONSPEKT

Qonun va malaka sertifikati

2 bo‘lim · o‘qish uchun taxminan 10 daqiqa. Imtihon oldidan shu sahifalarni takrorlang.

IJTIMOIY ISH: TUSHUNCHALAR VA PRINSIPLAR

O‘RQ-1159: MAQSAD, QONUNCHILIK, SANALAR

- Qonun maqsadi — **ijtimoiy ish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish** (1-m.). Tuzilishi: 8 bob, 48 modda.
- Ijtimoiy ish to‘g‘risidagi qonunchilik = shu Qonun + **boshqa qonunchilik hujjatlari** (2-m.).
- Xalqaro shartnomada Qonundagidan boshqacha qoida bo‘lsa — **xalqaro shartnoma qoidalari** qo‘llaniladi (2-m.).
- Qonunchilik palatasi qabul qilgan — 12.08.2025; Senat ma’qullagan — 09.07.2026; imzolanib e’lon qilingan va kuchga kirgan — **23.07.2026** (48-m.).
- Istisno: **22-m.** (reyestr, akkreditatsiya) va **30-m.** (standartlar) **2027-yil 1-yanvardan** amalga kiritiladi (48-m.).
- 2016-yilgi O‘RQ-415 (ijtimoiy xizmatlar haqidagi eski qonun) **kuchini yo‘qotgan**; endi O‘RQ-1159 ga tayaniladi (45-m.).

- Vazirlar Mahkamasi (VM): sertifikat tartibi, to‘sqinlik qiluvchi kasalliklar ro‘yxati — **3 oyda**; akkreditatsiya tartibi — 01.01.2027 gacha (47-m.).
- Sertifikat tartibi VMQ-461 (04.09.2026) bilan tasdiqlangan: qaror bandlari + 1-ilova — Ma’muriy reglament + 2-ilova — ish haqi.

§ O‘RQ-1159, kirish qismi, 1, 2, 45, 47, 48-moddalar; VMQ-461

IJTIMOIY ISH SUBYEKTLARI VA VAKOLATLARI

SOHALAR VA IDORALARARO HAMKORLIK (9–10-M.)

- Ijtimoiy ish **6 sohada**: tibbiyot, ta’lim, ijtimoiy himoya, bandlik, **sud va huquq-tartibot**, **jazoni ijro etish** (9-m.).
- Boshqa sohalar va ularning muqobil shakllari — **VM** belgilaydi (9-m.); Agentlik xizmat va yordamning muqobil shakllari bo‘yicha **taklif** beradi (13-m.).
- Hamkorlik **reglament** asosida: respublika va mahalliy organlar, fuqarolar yig‘ini, NNT va tadbirkorlar harakatlari tartibi (10-m.).
- Reglament tarkibi: subyektlar va ular ko‘rsatadigan xizmat (yordam) turlari; hamkorlik **tartibi va shakllari**.
- Axborot almashinuvining mazmuni, shakli va shartlari (**elektron shakl** ham); chora-tadbirlar mexanizmi, xizmat ko‘rsatuvchilarni jalb qilish.

- Davlat nazorati va **hamkorlik natijalarini baholash** tartibi. Reglamentni **Vazirlar Mahkamasi** tasdiqlaydi (10-m.).

§ O‘RQ-1159, 9, 10, 13-moddalar

IJTIMOIY ISH TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIK VA MALAKA SERTIFIKATI

Savollar 01–05

Javoblarni kitob oxiridagi javob varaqasiga yoki qog‘ozga yozing. Taymer: 8 daqiqa.

01 javob ›

Y2 · MOSLASHTIRISH

Moslashtiring: amaliy misol va Qonunning 3-moddasidagi tushuncha.

1. Oila daromadi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma va uy-joyga oid arxiv hujjati
2. Uyi yong‘indan zarar ko‘rgan oilaga ajratilgan pul ko‘magi
3. Nogironligi bo‘lgan bolaning onasiga psixologik-pedagogik maslahat
4. Muhtoj deb topilib, uyda parvarish xizmatini olayotgan keksa ayol

a. Ijtimoiy xizmatlar

b. Ahamiyatga ega bo‘lgan axborot

c. Ijtimoiy xizmatlar va yordamdan foydalanuvchi

d. Ijtimoiy yordam

e. Og‘ir ijtimoiy vaziyat

A 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

B 1-b, 2-d, 3-a, 4-c

C 1-b, 2-a, 3-d, 4-e

D 1-e, 2-a, 3-d, 4-c

02

javob ›

Xususiy klinika rahbari bemorlari orasida og‘ir ijtimoiy vaziyatdagi bir necha oilani bilib qoldi va ularga ko‘maklashmoqchi. Qonunga ko‘ra tadbirkorlik subyekti sifatida klinika nima qila oladi?

A Oilalarni muhtoj oila deb topish to‘g‘risida o‘zi qaror qabul qiladi

B Oilalar uchun ijtimoiy xizmatlar standartini ishlab chiqib tasdiqlaydi

C Oilalar bilan ijtimoiy shartnoma shartlarini o‘zi belgilaydi

D Oilalarni aniqlash va ularning hisobini yuritishda ishtirok etadi

03

javob ›

Tuman markazidan uzoq qishloqda yashovchi ona nogironligi bo‘lgan farzandini qarovsiz qoldira olmasligini aytib, bola rivojlanishi bo‘yicha maslahatni masofadan olishni so‘radi. Qonunga ko‘ra qaysi javob to‘g‘ri?

A Mumkin: Qonun xizmatni Internet orqali ko‘rsatishni ham nazarda tutadi

B Mumkin emas: maslahat “Inson” markazi binosida beriladi

C Mumkin emas: maslahat mahalla idorasida yuzma-yuz beriladi

D Bola statsionar muassasaga joylashtirilgandan keyin ko‘rsatiladi

04 javob ›

Fuqaro nogironligi bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsatayotgan muassasada belgilangan talablar va standartlarga rioya etilmayotganini aytmoqda. Qonunga ko‘ra bu sohada davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli organ qaysi?

A Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya

B Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi

C Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi

D Xizmat ko‘rsatayotgan muassasaning o‘z rahbari

05

javob ›

2027-yil sentabrida “SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasi ijtimoiy xodim lavozimiga nomzod tanlamoqda. Nomzodlardan biri toifaga ega emas (toifasiz). VMQ-461 ga ko‘ra qaysi xulosa to‘g‘ri?

A Toifa talabi faqat davlat organlariga taalluqli, nodavlat tashkilotlarga emas

B Bu tashkilotda faqat I toifali xodim ishlay oladi

C Toifasiz xodim ham ishlaydi, faqat ish haqi kamroq bo‘ladi

D Bu tashkilotda faqat III, II yoki I toifali xodim ishlay oladi

IJTIMOIY ISH TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIK VA MALAKA SERTIFIKATI

Javoblar va izohlar

01 **B** **1-b, 2-d, 3-a, 4-c** ‹ savol

3-moddaga ko‘ra: holatlarni tasdiqlovchi shaxsga doir ma’lumotlar va arxiv hujjatlari — ahamiyatga ega bo‘lgan axborot; ijtimoiy-iqtisodiy holati yomonlashgani uchun beriladigan moddiy ko‘mak — ijtimoiy yordam; psixologik-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, tibbiy-ijtimoiy choralar — ijtimoiy xizmatlar; muhtoj deb topilgan va xizmat olayotgan shaxs — foydalanuvchi. Og‘ir ijtimoiy vaziyat — choraning o‘zi emas, unga asos bo‘ladigan holat.

DIQQAT
Moddiy ko‘mak — ijtimoiy yordam; psixologik-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, tibbiy-ijtimoiy choralar — ijtimoiy xizmatlar.

§ O‘RQ-1159, 3-modda

02 D Oilalarni aniqlash va ularning hisobini yuritishda ishtirok etadi

‹ savol

18-moddaga ko‘ra tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar muhtoj shaxslarni aniqlaydi va hisobini yuritishda ishtirok etadi, dasturlarda qatnashadi, xizmat va yordam ko‘rsatadi yoki tashkil etadi. Muhtoj deb topish esa 24-moddada sanalgan organlar va NNTlar vakolatida — tadbirkorlar bu ro‘yxatda yo‘q. Standartlarni Agentlik ishlab chiqadi (13-modda), ijtimoiy shartnoma shartlarini Vazirlar Mahkamasi belgilaydi (25-modda).

DIQQAT
Aniqlash (23-modda) va muhtoj deb topish (24-modda) — turli harakatlar: aniqlashda tadbirkorlar va jismoniy shaxslar ham qatnashadi, muhtoj deb topishda yo‘q.

§ O‘RQ-1159, 18-modda; 24-modda; 13, 25-moddalar

---

03 A Mumkin: Qonun xizmatni Internet orqali ko‘rsatishni ham nazarda tutadi

‹ savol

20-moddaga ko‘ra ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam foydalanuvchining yashash joyida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘i orqali, uning mahallasida hamda xizmat ko‘rsatuvchilarning muassasalarida, jumladan statsionar muassasalarda ko‘rsatiladi.

§ O‘RQ-1159, 20-modda

04 A Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya

‹ savol

32-moddaga ko‘ra Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya ijtimoiy xizmatlar va yordam sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi; u, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsatishga doir talablar va standartlarga rioya etilishini nazorat qiladi. Fuqarolar yig‘ini jamoatchilik nazoratini olib boradi (16-modda), Malaka oshirish markazi esa sertifikat beradi.

DIQQAT

Davlat nazorati (Ijtimoiy inspeksiya) va jamoatchilik nazorati (fuqarolar yig‘ini, NNTlar) farqlanadi.

§ O‘RQ-1159, 32-modda; 16-modda

05 D Bu tashkilotda faqat III, II yoki I toifali xodim ishlay oladi

‹ savol

VMQ-461 ning 2-bandi “a” kichik bandiga ko‘ra “Inson” markazidan tashqari boshqa davlat organlari va tashkilotlari hamda nodavlat tashkilotlarda faqat III, II va I toifadan birini olgan ijtimoiy xodimlar faoliyat yuritadi. 3-bandga ko‘ra bu tartib “SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasida 2027-yil 1-iyundan joriy etiladi.

DIQQAT
Toifasiz ijtimoiy xodim faqat “Inson” markazida ishlashi mumkin.

§ VMQ-461, 2-band “a”; 3-band

2

Ijtimoiy himoya tizimi va ijtimoiy xizmatlar

Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” markazlari, muhtojlikni aniqlash, reyestr, ijtimoiy yordam va xizmatlar, mahalla.

PF-82, PQ-319: Agentlik va “Inson” markazlari

PF-258, VMQ-35: Ijtimoiy reyestr

VMQ-539, VMQ-484: xizmatlar va yordam

PF-116, VMQ-292: “mahalla yettiligi”

5
savol shu nashrda

5
mavzu

50
mavzu savoli to‘liq nashrda

KONSPEKT

Ijtimoiy himoya tizimi

2 bo‘lim · o‘qish uchun taxminan 10 daqiqa. Imtihon oldidan shu sahifalarni takrorlang.

AGENTLIK VA “INSON” MARKAZLARI

TIZIM: AGENTLIKDAN MAHALLAGACHA

Agentlik	Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi: yagona siyosat bo‘yicha vakolatli organ, **mustaqil** (6-b.)
Hududiy boshqarma	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalar (2-b.)
“Inson” markazi	tuman (shahar)dagi tuzilma (2-b.); VMQ-35 nizomlarida “**vakolatli organ**”: Reyestr va nafaqa arizalari unga beriladi
Ijtimoiy xodim	markazdagi ijtimoiy xodimlar guruhi a’zosi, mahallaga biriktirilgan: har xonadonni o‘rganadi, keys-menejment (5-b.)

Ijtimoiy inspeksiya	Agentlik huzurida (7-b.); xizmat ko‘rsatmagan xodimga intizomiy jazo haqida **taqdimnoma** (PQ-319, 7-b.)
Malaka oshirish	Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi — Agentlik huzurida (7-b.)
Funksionallik	Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza negizida — nogironligi bo‘lgan shaxslar funksionalligini baholash boshqarmasi (7-b.)
Davlat jamg‘armasi	Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi (15-b.): NNT loyihalari, davlat ijtimoiy buyurtmasi, KPI mukofoti (4-ilova)

§ PF-82, 2, 5, 6, 7, 15-bandlar, 4-ilova; PQ-319, 7-band; VMQ-35

MUHTOJLIKNI ANIQLASH VA HISOBGA OLISH

IJTIMOIY REYESTR: MUDDAT VA RAQAMLAR

1 marta

oyiga oila Reyestr uchun ariza beradi

1-ilova, 5-b.

3

ish kuni: xodim uyda savolnoma to‘ldiradi

1-ilova, 11-b.

3
ish kuni: yettilik xulosani tasdiqlaydi
1-ilova, 15-b.

3
ish kuni: “YAMIH” AT yakuniy baholaydi
1-ilova, 16-b.

3 oy
daromadi: sentabr arizasi — may–iyul
1-ilova, 18,30

3 oy
ichida xulosa bo‘lsa — yangi savolnoma yo‘q
1-ilova, 9–10

5 a’zo
kamida ERI bilan: dalolatnoma, xulosa
1-ilova, 13-b.

30 kun
ichida yettilik og‘ir vaziyat tavsiyasi
1-ilova, 34-b.

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI VA IJTIMOIY XIZMATLAR

Savollar 06–10

Javoblarni kitob oxiridagi javob varaqasiga yoki qog‘ozga yozing. Taymer: 8 daqiqa.

06 javob ›

Y3 · KETMA-KETLIK

Nodavlat notijorat tashkilot hududiy markazda nogironligi bo‘lgan bolalarga reabilitatsiya xizmatini ko‘rsatmoqchi; shu xizmat va xona uchun yana bir talabgor so‘rovnoma yuborgan. VMQ-555 ning 2-ilovasiga ko‘ra bosqichlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Hududiy markaz talabgor bilan ijara shartnomasini tuzadi
2. Talabgor “YAMIH” ATda elektron so‘rovnoma to‘ldiradi
3. Talabgor Yagona reyestrga kiritilib, shaxsiy kabinetiga xabarnoma yuboriladi
4. Kamida uch a’zoli o‘rganish guruhi o‘n ish kuni ichida qaror qabul qiladi
5. Xizmat ikki oy ichida yo‘lga qo‘yiladi, aks holda shartnoma bekor qilinishi mumkin

A 2, 4, 1, 3, 5

B 4, 2, 1, 3, 5

C 2, 4, 3, 1, 5

D 2, 1, 4, 3, 5

07

javob ›

Dastlabki baholashdan so‘ng oila arizasi ijtimoiy xodimning axborot modulidagi shaxsiy kabinetiga kelib tushdi. VMQ-35 ga ko‘ra xodim savolnomani qanday tartibda to‘ldirishi kerak?

A O‘n ish kuni ichida oilani “Inson” markaziga chaqirib, qo‘shnilar ishtirokida

B Bir oy ichida, xonadonga bormay, mahalla raisi bergan ma’lumotlar asosida

C Besh ish kuni ichida xonadonga borib, oiladagi voyaga yetmagan bola ishtirokida

D Uch ish kunida xonadonga borib, ariza beruvchi yoki layoqatli a’zo ishtirokida

08

javob ›

Mahallada to‘rt ayol oila a’zosiga qarab turibdi va bu davr pensiya uchun ish stajiga qo‘shilishini istaydi. VMQ-539 ning 3-bandi “b” kichik bandiga ko‘ra qaysi ayolga nisbatan ijtimoiy xodim qarab turishning haqiqiy holatini o‘rganib, “Ijtimoiy himoya” ATda qayd etadi?

A 18 yoshga to‘lmagan, nogironligi bo‘lgan o‘g‘liga qarab turgan ona

B II guruh nogironligi bo‘lgan 50 yoshli eriga qarab turgan ayol

C Tibbiy xulosasi yo‘q, o‘zi yura oladigan 82 yoshli otasiga qaragan qiz

D Davolash muassasasi xulosasi bor 75 yoshli onasiga qarab turgan qiz

09

javob ›

Ijtimoiy xodimga bir kunda to‘rtta xabar keldi. VMQ-539 ning 2-ilovasidagi ro‘yxatga ko‘ra qaysi holatda xizmat shaxsning alohida roziligini talab qilmasdan shoshilinch ko‘rsatiladi?

A Keksa ayol Agentlik tizimidagi sanatoriyga yo‘llanma olmoqchi

B Nogironligi bo‘lgan yigit protez olish uchun sertifikat rasmiylashtirmoqchi

C Qo‘shnilar 5 va 7 yoshli bolalar ikki kundan beri yolg‘iz qolganini aytdi

D Oila Reyestrga kiritilganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma olmoqchi

10

javob ›

Mahalla raisi yangi ijtimoiy xodimga to‘rtta topshiriq berdi. PF-116 ning 1-ilovasi VI bo‘limiga ko‘ra ulardan qaysi biri ijtimoiy xodimning asosiy vazifasi?

A Mahalladagi soliq to‘lovchilarni to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ro‘yxatini yuritish

B Pasport rejimi qoidalariga rioya etilishini xonadonma-xonadon nazorat qilish

C Mahallani iqtisodiy rivojlantirish biznes-rejasini ishlab chiqib, kengashda tasdiqlash

D Aholiga kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va ularni olish huquqini tushuntirish

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI VA IJTIMOIY XIZMATLAR

Javoblar va izohlar

06 **C** **2, 4, 3, 1, 5**

‹ savol

2-ilovaga ko‘ra talabgor “YAMIH” ATda so‘rovnoma to‘ldiradi (6-band); bir xizmat va xona uchun ikki va undan ortiq talabgor bo‘lsa, Agentlik hududiy boshqarmasi huzuridagi kamida uch a’zoli o‘rganish guruhi (tarkibida markaz direktori) o‘n ish kuni ichida qaror qabul qiladi (8, 10-bandlar); qarordan so‘ng talabgor Yagona reyestrga kiritilib, shaxsiy kabinetiga xabarnoma yuboriladi va markaz u bilan ijara shartnomasini tuzadi (12-band); xizmat ikki oy ichida tashkil etilmasligi shartnomani bekor qilish asosi (13-band).

§ VMQ-555, 2-ilova, 6, 8, 10, 12, 13-bandlar

07 D Uch ish kunida xonadonga borib, ariza beruvchi yoki layoqatli a’zo ishtirokida

‹ savol

Ijtimoiy reyestrni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 11-bandiga ko‘ra ijtimoiy xodim ariza shaxsiy kabinetiga kelib tushgandan so‘ng uch ish kuni ichida ariza beruvchining xonadoniga borib, ariza beruvchi yoki muomalaga layoqatli oila a’zosi ishtirokida savolnomani axborot modulida elektron shaklda to‘ldiradi. 12-bandga ko‘ra ular savolnoma bilan tanishtiriladi va rozi bo‘lsa, uni Face-ID, elektron grafik imzo yoki SMS-kod orqali tasdiqlaydi.

§ VMQ-35, 1-ilova, 11- va 12-bandlar

08 A 18 yoshga to‘lmagan, nogironligi bo‘lgan o‘g‘liga qarab turgan ona

‹ savol

VMQ-539 ning 3-bandi “b” kichik bandiga ko‘ra I guruh nogironligi bo‘lgan shaxsga, 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolaga hamda davolash muassasasi xulosasiga ko‘ra o‘zgalar parvarishiga muhtoj 80 yoshga to‘lgan qariyalarga qarab turishning haqiqiy holatlarini ijtimoiy xodimlar yiliga bir marta o‘rganib, “Ijtimoiy himoya” ATda yuritadi; bu ma’lumot pensiya tayinlashda ish stajiga kiritish uchun asos. II guruh, 80 yoshga to‘lmagan yoki tibbiy xulosasiz keksa bu ro‘yxatda yo‘q.

DIQQAT

80 yoshga to‘lgan keksa uchun davolash muassasasining o‘zgalar parvarishiga muhtojlik xulosasi ham kerak.

§ VMQ-539, 3-band “b”

09 C Qo‘shnilar 5 va 7 yoshli bolalar ikki kundan beri yolg‘iz qolganini aytdi

‹ savol

VMQ-539 ning 2-bandiga ko‘ra 2-ilovadagi ro‘yxat PQ-319 eksperimenti doirasida tasdiqlangan. Uning I qismida alohida roziliksiz shoshilinch xizmat holatlari: tazyiq va zo‘ravonlik (jumladan bolalarga nisbatan), shoshilinch tibbiy va ruhiy yordamga muhtojlik, muayyan yashash joyi yo‘qligi, ota-ona qaramog‘isiz, qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalar, o‘z joniga qasd qilish ehtimoli yuqori holatlar. Sanatoriy yo‘llanmasi, protez sertifikati va Reyestr ma’lumotnomasi II qismda (shaxs nomidan ariza kiritiladi). Umumiy qoida: VMQ-484, 2-band “a”.

§ VMQ-539, 2-band; 2-ilova, I qism, 4-band; II qism, 3, 4, 15-bandlar; VMQ-484, 2-band “a”

10 D Aholiga kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va ularni olish huquqini tushuntirish

‹ savol

PF-116 1-ilovasining VI bo‘limiga ko‘ra ijtimoiy xodim muhtoj aholiga kompleks professional xizmatlar ko‘rsatadi, individual ijtimoiy xizmatlar rejasini tuzib, bajarilishini tashkil qiladi, ichki resurslar va ko‘ngillilarni jalb qiladi, aholiga davlat kafolatlagan xizmat va yordamlar hamda ularni olish huquqlarini tushuntiradi (5-band). Soliq xatlovi — soliq inspektori (VII, 2-band), pasport rejimi — profilaktika inspektori (V, 12-band), biznes-reja — hokim yordamchisi (II, 1-band) vazifasi.

§ PF-116, 1-ilova, 1-bo‘lim, II, V, VI, VII; PQ-319, 2-band

3

Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar bilan ishlash

Bolalar va oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlar, boshqa zaif guruhlar.

- Bola huquqlari, vasiylik va homiylik
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari
- Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish
- Odam savdosiga qarshi kurashish

5	5	50
savol shu nashrda	mavzu	mavzu savoli to‘liq nashrda

KONSPEKT

Maqsadli guruhlar

2 bo‘lim · o‘qish uchun taxminan 10 daqiqa. Imtihon oldidan shu sahifalarni takrorlang.

BOLALAR VA OILALAR

O‘RQ-139: BOLA VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

Bola	**18 yoshga** to‘lgunga qadar shaxs; **eng ustun manfaatlari** bola ishtirokida, fikri inobatga olinib belgilanadi (3-m.)
Qonuniy vakillar	ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar, shuningdek **“Inson” markazlari** (3-m.)
Yetim bola	**otasi ham, onasi ham** vafot etgan yoki sud qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilingan bola (3-m.)
Ota-ona qaramog‘isiz	ota-onalik huquqidan mahrum/cheklangan, bedarak yo‘qolgan, **muomalaga layoqatsiz**, bo‘yin tovlagan va h.k. (3-m.)

Nuqsoni bor bola	nuqsoni nogironlik uchun **yetarli emas**: nogironligi bo‘lgan bola emas, lekin himoyaga muhtoj toifada (3, 24-m.)
Himoyaga muhtojlar	nogironligi yoki nuqsoni bor, yetim, qaramoqsiz, muassasadagi, yashash joyisiz, kam ta’minlangan, jabrlangan va b.
Fikr va murojaat	fikri **yoshidan qat’i nazar** ko‘riladi (15-m.); vasiylik organiga **o‘zi** murojaat qiladi, ko‘rmay qoldirilmaydi (11-m.)
Oila va joylashtirish	oilada yashash huquqi (13-m.); vasiylik/homiylik, farzandlikka olish, tutingan oila; muassasa: **oxirgi chora** (24-m.)

§ O‘RQ-139, 3, 11, 13, 15, 24-moddalar

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR

O‘RQ-641: ASOSIY TUSHUNCHALAR (3-M.)

Nogironligi bor shaxs	barqaror jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsoni bor, jamiyatda teng ishtirok uchun **shart-sharoitga muhtoj** shaxs

Kamsitish	nogironlik sababli teng huquqni inkor qiladigan har qanday **ajratish, istisno etish, chetlatish, cheklash**
Oqilona moslashtirish	teng huquqni amalga oshirish uchun **aniq bir holatda** tuzatish kiritish (yirik shrift, ovozli dastur va h.k.)
TIE	tibbiy-ijtimoiy ekspertiza: kompleks baholab, **guruh**, sabab, vaqt va mehnat, parvarish, himoyaga ehtiyojni aniqlash
Surdotarjima	biror tildan **daktil alifbosi** va (yoki) imo-ishora tilida tarjima qilish usuli
Surdotexnika	**eshitishdagi** nuqsonni tuzatish va kompensatsiya qilish vositalari
Tiflotexnika	**ko‘rishdagi** nuqson tufayli yo‘qolgan imkoniyatni tiklovchi vositalar
Protez-ortopediya	yo‘q bo‘lgan qo‘l-oyoq yoki tana qismi o‘rnini bosuvchi, funksiyani kompensatsiya qiluvchi moslama

§ O‘RQ-641, 3-modda

IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ GURUHLAR BILAN ISHLASH

Savollar 11–15

Javoblarni kitob oxiridagi javob varaqasiga yoki qog‘ozga yozing. Taymer: 8 daqiqa.

11 javob ›

Y2 · MOSLASHTIRISH

Moslashtiring: vasiylik masalasi va O‘RQ-364 ga ko‘ra uni hal qiladigan (yoki chora ko‘radigan) organ yoki mansabdor shaxs.

1. 9 yoshli yetim bolaga vasiy tayinlash
2. Sud muomalaga layoqatsiz deb topgan 35 yoshli fuqaroga vasiy tayinlash
3. Xorijda yashaydigan, ota-ona qaramog‘idan mahrum qolgan voyaga yetmagan O‘zbekiston fuqarosi
4. Vasiy tayinlash to‘g‘risidagi qaror ustidan manfaatdor shaxsning shikoyati

a. Sud

b. “Inson” markazi direktori

c. Mahalla fuqarolar yig‘ini

d. Tuman (shahar) hokimi

e. O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasasi

A. 1-b, 2-d, 3-a, 4-e

B. 1-c, 2-d, 3-a, 4-e

C. 1-b, 2-d, 3-e, 4-a

D. 1-b, 2-c, 3-e, 4-a

12

javob ›

Xususiy o‘quv markazi o‘rindiqli aravachadan foydalanadigan yigitni kompyuter kursiga qabul qilishdan bosh tortdi: “Bizda aravachali o‘quvchilar uchun sharoit yo‘q, boshqa joy toping”. O‘RQ-641 nuqtai nazaridan bu holat qanday baholanadi?

A Kamsitish emas: xususiy tashkilotga bu talab qo‘yilmaydi

B Kamsitish emas, chunki yigit boshqa markazni tanlashi mumkin

C Nogironlik belgisiga ko‘ra kamsitish bo‘lib, u taqiqlanadi

D Davlat ta’lim muassasasida bo‘lgandagina kamsitish hisoblanadi

13

javob ›

VMQ-461 ning 3-ilovasi bilan tahrir qilingan reglamentga ko‘ra davlat xizmati joyiga chiqib ko‘rsatilganda quyidagi shaxslardan qaysi biri to‘lovdan ozod qilinganlar qatorida EMAS?

A Yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar reyestriga kiritilgan ayol

B Sog‘lig‘i tufayli mustaqil harakatlanish imkoniyati cheklangan erkak

C II guruh nogironligi bo‘lgan, o‘zi bemalol harakatlana oladigan erkak

D III guruh nogironligi bo‘lgan, o‘zi bemalol harakatlana oladigan ayol

14

javob ›

Ayol ijtimoiy xodimga eri unga muntazam tahdid qilayotganini aytib, himoya orderi olmoqchi ekanini bildirdi. O‘RQ-561 ga ko‘ra himoya orderi qanday beriladi?

A “Inson” markazi direktori 24 soat ichida, bir yilgacha muddatga beradi

B Mas’ul ichki ishlar organi xodimi 24 soat ichida, 30 kungacha beradi

C Jinoyat ishlari bo‘yicha sud uch ish kuni ichida, olti oygacha muddatga beradi

D Mahalla raisi profilaktika suhbatidan so‘ng, 15 kungacha muddatga beradi

15

javob ›

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan, ijtimoiy himoyaga muhtoj erkak hujjatlarini tiklash va ishga kirish uchun ro‘yxatdan o‘tgan manzili yo‘qligidan qiynalmoqda. VMQ-539 ga ko‘ra “Inson” markazi qanday yordam berishi mumkin?

A Ro‘yxat masalasi sud orqali hal etiladi, markaz bunga aralasha olmaydi

B Direktor uni Agentlik muassasasiga olti oygacha vaqtincha ro‘yxatga qo‘yadi

C Markaz uni o‘z binosida doimiy ro‘yxatga qo‘yib, uy-joy bilan ta’minlaydi

D Markaz unga mahalla raisi orqali bir yillik ijara uyini rasmiylashtirib beradi

IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ GURUHLAR BILAN ISHLASH

Javoblar va izohlar

11 C 1-b, 2-d, 3-e, 4-a

‹ savol

Voyaga yetmaganlarga vasiylik “Inson” markazi direktori qarori bilan, voyaga yetganlarga esa tuman (shahar) hokimi qarori bilan belgilanadi (19-modda); tibbiyot birlashmasi bunda hujjat va xulosa tayyorlaydi (13-modda). Xorijda yashaydigan bunday fuqarolarga konsullik muassasalari vasiylik belgilash choralarini ko‘radi (7-modda). Vasiylik bo‘yicha qarorlar ustidan sudga shikoyat qilinadi (45-modda). Mahalla vasiy tayinlamaydi.

§ O‘RQ-364, 7, 13, 19, 45-moddalar

12 C Nogironlik belgisiga ko‘ra kamsitish bo‘lib, u taqiqlanadi

‹ savol

O‘RQ-641 ning 6-moddasiga ko‘ra nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo‘yish, istisno etish, cheklash, shuningdek obyekt va xizmatlardan foydalanish uchun shart-sharoit yaratishni rad etish taqiqlanadi; 18-moddada nogironlik belgisi bo‘yicha har qanday kamsitish taqiqlangan. 23-moddaga ko‘ra ijtimoiy infratuzilma obyektlariga moneliksiz kirish sharoitini yaratish tashkilotlarning ham majburiyati. Boshqa markaz borligi kamsitishni oqlamaydi.

§ O‘RQ-641, 6, 18, 23-moddalar

13 D III guruh nogironligi bo‘lgan, o‘zi bemalol harakatlana oladigan ayol

‹ savol

VMQ-461 ning 3-ilovasi (1-band “b”) bilan VMQ-435 reglamentining 4-bandi yangi tahrirda bayon etilgan: o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar reyestriga kiritilganlar, sog‘lig‘i holatiga ko‘ra mustaqil harakatlanish imkoniyati cheklanganlar hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslardan joyiga chiqib ko‘rsatilgan davlat xizmati uchun to‘lov undirilmaydi. III guruh bu ro‘yxatda yo‘q.

§ VMQ-461, 3-ilova, 1-band “b”

14 B Mas’ul ichki ishlar organi xodimi 24 soat ichida, 30 kungacha beradi

‹ savol

O‘RQ-561 ning 8 va 23-moddalariga ko‘ra himoya orderini ichki ishlar organlari beradi: hududda yakka tartibdagi profilaktika uchun mas’ul mansabdor shaxs tazyiq va zo‘ravonlik fakti yoki xavfi aniqlangan paytdan e’tiboran 24 soat ichida uni o‘ttiz kun muddatgacha beradi. Jabrlanuvchi orderni talab qilib ichki ishlar organiga murojaat qilishga haqli (4-modda), ijtimoiy xodim ariza berishda amaliy yordam ko‘rsatadi (17-modda). Muddatni bir yilgacha sud uzaytiradi.

DIQQAT

Orderni sud emas, ichki ishlar organi beradi; sud uning muddatini uzaytiradi.

§ O‘RQ-561, 4, 8, 17, 23-moddalar

15 B

Direktor uni Agentlik muassasasiga olti oygacha vaqtincha ro‘yxatga qo‘yadi

‹ savol

VMQ-539 ning 6-bandiga ko‘ra (PQ-319 asosida) “Inson” markazlari direktorlari muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni Agentlik huzuridagi uy-joy fondiga ega bo‘lgan muassasalarga olti oy muddatgacha vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish huquqiga ega. 7-bandga ko‘ra bu ma’lumot “Ijtimoiy himoya” AT orqali migratsiya bo‘linmalariga yuboriladi va bir ish kuni ichida QR-kodli qayd varag‘i qaytariladi.

§ VMQ-539, 6, 7-bandlar

4

Ijtimoiy ish metodlari va keys menejment

Keys menejment bosqichlari, ehtiyoj va xavfni baholash, individual reja, muloqot, inqiroz va guruh bilan ishlash.

- Keys menejment sikli
- Ekologik model, genogramma, ekokarta
- SMART, motivatsion suhbat, o‘zgarish bosqichlari
- Inqiroz aralashuvi, guruh va jamoa

5	5	50
savol shu nashrda	mavzu	mavzu savoli to‘liq nashrda

KONSPEKT

Ish metodlari

2 bo‘lim · o‘qish uchun taxminan 10 daqiqa. Imtihon oldidan shu sahifalarni takrorlang.

KEYS MENEJMENT BOSQICHLARI

KEYS MENEJMENT SIKLI: 8 BOSQICH

1. Aniqlash	murojaatni kutmasdan ham: shaxslar axboroti, OAV xabari, ko‘rsatkichlar tahlili (23-m.) → oilaga borib o‘rganish
2. Dastlabki uchrashuv	o‘zini tanishtirish, maqsad va shartlarni tushuntirish (26-m.), rozilik olish (25-m.); asossiz va’da bermaslik
3. Baholash	ehtiyoj, xavf va resurslarni har tomonlama o‘rganish (35-m.); kerak bo‘lsa multidissiplinar guruhda
4. Individual reja	maqsad, vazifa, mas’ul va muddat mijoz bilan birga kelishiladi (26-m.: rejalashtirishda ishtirok)
5. Amalga oshirish	xizmat ko‘rsatish, yo‘naltirish va muvofiqlashtirish (34-, 35-m.)

6. Monitoring	reja bajarilishi va mijoz holatidagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatish (3-m.)
7. Qayta baholash	natijani mijoz bilan baholash; jiddiy o‘zgarishda reja qayta ko‘riladi
8. Yopish va kuzatuv	28-m. asosida yopish va hujjatlash; keyin natija barqarorligini bilib, qayta murojaat yo‘lini eslatish

§ Keys menejment sikli; O‘RQ-1159, 3-, 23–28-, 34-, 35-moddalar

EHTIYOJ VA XAVFNI BAHOLASH

XAVFSIZLIK BIRINCHI: USTUVORLIK TARTIBI

- Ish tartibini navbat yoki qulaylik emas, **xavf darajasi** belgilaydi: hayot va sog‘liqqa tahdid hamma narsadan oldin turadi.
- Kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda xizmat va yordam shaxsning **roziligini talab qilmasdan** ko‘rsatiladi (25-m.).
- Hayotga tahdid (o‘ldirish bilan qo‘rqitish, qurol): xavfni baholash, himoya choralari, ichki ishlar organlarini jalb qilish; qarz va kiyim keyin.
- Tibbiy xavf (chalkash nutq, baland isitma) — darhol tez yordam, yonida qolish; yolg‘iz keksa kunlab ko‘rinmasa — ahvolini zudlik bilan aniqlash.

- **Bola xavf ostida**: darhol xavfsizlik → vakolatli organlarga xabar → baholash → reja → kuzatish.
- Avval hayotiy ehtiyojlar va xavfsizlik (A. Maslou), keyin boshqalari; zo‘ravonlik mavzusini keyinga qoldirish xavfni oshiradi.

§ O‘RQ-1159, 25-modda; A. Maslou; A. Roberts (1-bosqich)

IJTIMOIY ISH METODLARI VA KEYS MENEJMENT

Savollar 16–20

Javoblarni kitob oxiridagi javob varaqasiga yoki qog‘ozga yozing. Taymer: 8 daqiqa.

16 javob ›

Y3 · KETMA-KETLIK

Keys menejment bosqichlarini to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Rejani amalga oshirish: xizmatlar, yo‘naltirish, muvofiqlashtirish
2. Ehtiyoj va xavfni baholash
3. Keysni yopish
4. Aniqlash va dastlabki uchrashuv
5. Mijoz bilan individual reja tuzish
6. Monitoring va qayta baholash

A 4, 2, 5, 1, 6, 3

B 4, 5, 2, 1, 6, 3

C 2, 4, 5, 1, 6, 3

D 4, 5, 2, 6, 1, 3

17

javob ›

Uyga tashrif chog‘ida ayol kecha eri uni urganini va o‘ldirish bilan qo‘rqitganini aytdi. Shuningdek, oilaning qarzi bor, bolalarda qishki kiyim yo‘q. Ijtimoiy xodim birinchi navbatda nimaga e’tibor qaratishi kerak?

A Ayol avval so‘ragan qarz muammosini hal qilish yo‘llariga

B Ayol va bolalar xavfsizligini baholab, himoya qilishga

C Bolalar uchun qishki kiyim-kechak topish va yetkazishga

D Ishonch to‘liq o‘rnatilgunicha zo‘ravonlik mavzusini keyinga qoldirishga

18

javob ›

Ijtimoiy xodim individual rejani idorada tayyorlab, onaga imzolashni taklif qildi. Ona bir bandga — o‘g‘lini maktab-internatga joylashtirishga rozi emas; bolaning xavfsizligiga tahdid aniqlanmagan. Qanday yo‘l tutgan ma’qul?

A Rozi bo‘lmasa, barcha yordam to‘xtatilishini aytib ogohlantirish

B E’tirozini bayonnomaga qayd etib, rejani o‘zgarishsiz amalga oshirishga kirishish

C Onani ko‘ndirishni mahalla raisiga topshirib, rejani imzolatish

D Fikrini eshitib, muqobillarni muhokama qilib, rejani birga qayta ko‘rish

19

javob ›

Mijoz asabiylashib dedi: “Hamma menga aql o‘rgatadi! Ichishni tashlash kerakligini o‘zim ham bilaman, lekin hozir emas”. Motivatsion suhbat ruhiga qaysi javob mos?

A “Hozir tashlamasangiz, oilangizni yo‘qotishingiz aniq.”

B “Unda tayyor bo‘lganingizda keling, hozir yordam bera olmayman.”

C “Hozir bu qiyin tuyulyapti, lekin o‘zgarish kerakligini ham sezyapsiz.”

D “Keling, avval ichishning sog‘liqqa zararlari haqida batafsil gapirib beraman.”

20

javob ›

Ishsiz qolgan va oilasi tark etgan yigit tashrif chog‘ida: “Hammasidan charchadim, tez orada bu azoblarga nuqta qo‘yaman”, dedi va buyumlarini boshqalarga tarqatayotganini aytdi. Ijtimoiy xodim qanday yo‘l tutgani ma’qul?

A Jiddiy qabul qilib, yolg‘iz qoldirmay, shoshilinch tibbiy yordamni chaqirish

B Hech kimga aytmaslikka va’da berib, ertaga yana kelishni kelishish

C Kayfiyatini ko‘tarish uchun gapini hazilga yo‘yib, mavzuni o‘zgartirish

D Avval ish topish masalasini hal qilib, psixologni keyin jalb qilish

IJTIMOIY ISH METODLARI VA KEYS MENEJMENT

Javoblar va izohlar

16 **A** **4, 2, 5, 1, 6, 3** ‹ savol

Keys menejment sikli: aniqlash va dastlabki uchrashuv → baholash → individual reja → amalga oshirish → monitoring va qayta baholash → keysni yopish. Reja baholashsiz tuzilmaydi: xodim avval muammo va ehtiyojlarni aniqlaydi (35-modda), so‘ng rejani mijoz bilan birga tuzadi (26-modda).

§ Keys menejment sikli; O‘RQ-1159, 26- va 35-moddalar

---

17 **B** **Ayol va bolalar xavfsizligini baholab, himoya qilishga** ‹ savol

Hayotga bevosita tahdid (o‘ldirish bilan qo‘rqitish) bor joyda birinchi navbatda xavfsizlik baholanadi — bu A. Roberts modelining ham birinchi bosqichi. Xodim himoya choralarini ko‘radi; zo‘ravonlik fakti haqida ichki ishlar organlariga darhol xabar qilinadi (O‘RQ-561, 20-modda), kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda xizmat roziliksiz ham ko‘rsatiladi (O‘RQ-1159, 25-modda). Qarz va kiyim keyin hal qilinadi, zo‘ravonlik mavzusini keyinga surish esa xavfni oshiradi.

§ Inqiroz aralashuvi (A. Roberts, 7 bosqich); O‘RQ-561, 20-modda; O‘RQ-1159, 25-modda

18 **D** **Fikrini eshitib, muqobillarni muhokama qilib, rejani birga qayta ko‘rish**

‹ savol

Foydalanuvchi xizmatlarni rejalashtirishda ishtirok etish va o‘z xohish-istaklarini bildirish huquqiga ega (26-modda); xodim faoliyatini foydalanuvchini jalb qilgan holda yuritadi (35-modda). Bola xavfsizligiga tahdid bo‘lmagan vaziyatda reja ona bilan kelishiladi; yordamni to‘xtatish bilan qo‘rqitish esa bosim hisoblanadi.

§ O‘RQ-1159, 26- va 35-moddalar

---

19 **C** **“Hozir bu qiyin tuyulyapti, lekin o‘zgarish kerakligini ham sezyapsiz.”**

‹ savol

Motivatsion suhbatda qarshilik bilan bahslashilmaydi, u bilan birga harakatlaniladi: ikki tomonlama aks ettirish mijozning ikkilanishini (“kerak, lekin hozir emas”) tan oladi va o‘zgarish haqidagi o‘z fikrini kuchaytiradi. Qo‘rqitish va nasihat qarshilikni oshiradi, yordamdan voz kechish esa aloqani uzadi.

§ Motivatsion suhbat (U. Miller–S. Rollnik)

20 A Jiddiy qabul qilib, yolg‘iz qoldirmay, shoshilinch tibbiy yordamni chaqirish

‹ savol

O‘z joniga qasd qilish niyati haqidagi gaplar va buyumlarni tarqatish — jiddiy xavf belgilari. Inqiroz aralashuvining birinchi bosqichi xavf darajasini baholash va xavfsizlikni ta’minlash: shaxs yolg‘iz qoldirilmaydi, shoshilinch tibbiy (psixiatrik) yordam jalb qilinadi. Bu kechiktirib bo‘lmaydigan holat (25-modda); sir saqlash va’dasi esa uni xavf ostida qoldiradi.

§ Inqiroz aralashuvi (A. Roberts, 7 bosqich); O‘RQ-1159, 25-modda

5

Kasbiy etika, maxfiylik va hujjat yuritish

Kasbiy qadriyatlar, maxfiylik va shaxsga doir ma’lumotlar, superviziya, hujjatlar va murojaatlar, halollik.

IFSW prinsiplari; O‘RQ-1159, 34–42-moddalar

O‘RQ-547: shaxsga doir ma’lumotlar

Kadushin, Maslach: superviziya va kuyib qolish

O‘RQ-378, O‘RQ-419, O‘RQ-931

5
savol shu nashrda

5
mavzu

50
mavzu savoli to‘liq nashrda

KONSPEKT

Etika va amaliyot

2 bo‘lim · o‘qish uchun taxminan 10 daqiqa. Imtihon oldidan shu sahifalarni takrorlang.

KASBIY ETIKA VA QADRIYATLAR

IFSW (2018): 1–8-PRINSIPLAR

1. Qadr-qimmat	har bir insonning **ajralmas qadrini** so‘zda va amalda hurmat qilish; o‘zini yoki boshqani kamsitishga qarshi chiqish
2. Inson huquqlari	barchaning ajralmas huquqlarini ilgari surish; to‘qnashgan huquqlarni muvozanatlashga yordam berish
3. Ijtimoiy adolat	3.1 kamsitish va zulmga qarshi turish; 3.2 xilma-xillik; 3.3 resurslar; 3.4 adolatsiz amaliyot; 3.5 birdamlik
4. Mustaqil qaror	**o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi**: tanlov hurmat qilinadi, agar boshqalarning huquq va manfaatiga tahdid solmasa

5. Ishtirok	**ishtirok etish huquqi**: o‘z hayotiga oid qarorlarda to‘liq qatnashishi uchun ishonch va qobiliyatini oshirish
6. Maxfiylik	6.1 maxfiylik hurmati — o‘ziga yoki boshqaga zarar xavfi, qonuniy cheklov bo‘lmasa; 6.2 chegarasi oldindan aytiladi
7. Yaxlit shaxs	insonning **biologik, psixologik, ijtimoiy va ma’naviy** jihatlarini birga baholash va aralashuv qilish
8. Raqamli etika	8.1 prinsiplar ijtimoiy tarmoq va raqamli amaliyotda ham amal qiladi; 8.2 maxfiylikka raqamli xavfni anglash

§ IFSW/IASSW: etika prinsiplari bayonoti (2018), 1–8

MAXFIYLIK VA SHAXSGA DOIR MA’LUMOTLAR

O‘RQ-547: TUSHUNCHALAR VA HARAKATLAR

Shaxsga doir ma’lumot	muayyan shaxsga taalluqli yoki uni **identifikatsiya qiladigan** qayd etilgan axborot (telefon raqami ham)

Subyekt va operator	subyekt — ma’lumot o‘ziga taalluqli shaxs; operator — ishlov beruvchi davlat organi, yuridik yoki jismoniy shaxs
Uchinchi shaxs	subyekt, mulkdor va operatordan boshqa shaxs; unga oshkor etish — faqat **rozilik yoki qonuniy asos** bilan (28-m.)
Berish (13-m.)	**muayyan shaxsga** oshkor etish; davlat boshqaruvi organlariga bepul beriladi
Tarqatish (14-m.)	**nomuayyan doiraga**: OAV, Internet (Telegram guruhi ham); maqsaddan chetga chiqsa — faqat subyekt roziligi bilan
Transchegaraviy	O‘zbekiston hududidan tashqariga uzatish (15-m.)
Egasizlantirish	kimga tegishliligini aniqlab bo‘lmaydigan qilish; tarixiy, statistik, ilmiy tadqiqotda **shart** (16-m.)

Yo‘q qilish (17-m.)	tiklab bo‘lmaydigan qilish: maqsadga erishilganda, rozilik chaqirib olinganda, muddat o‘tganda, sud qarori bilan

§ O‘RQ-547, 4, 13–17, 28-moddalar

KASBIY ETIKA, MAXFIYLIK VA HUJJAT YURITISH

Savollar 21–25

Javoblarni kitob oxiridagi javob varaqasiga yoki qog‘ozga yozing. Taymer: 8 daqiqa.

21 javob ›

Y2 · MOSLASHTIRISH

Moslashtiring: ijtimoiy xodimning harakati va IFSW etika prinsiplari (2018).

1. Mijoz bir necha variantdan o‘ziga maqbulini o‘zi tanladi
2. Nogironligi sababli to‘garakka olinmagan bolaning huquqi himoya qilindi
3. Mijozga maxfiylik chegaralari oldindan tushuntirildi
4. Bola muammosi oila, maktab va sog‘lig‘i bilan birga ko‘rib chiqildi

a. Ijtimoiy adolatni ilgari surish

b. Insonga yaxlit shaxs sifatida munosabatda bo‘lish

c. O‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi

d. Maxfiylik va shaxsiy hayotni hurmat qilish

A 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

B 1-c, 2-b, 3-d, 4-a

C 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

D 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

22

javob ›

Ijtimoiy xodim nogironligi bo‘lgan, voyaga yetgan va muomalaga layoqatli mijozning tibbiy hujjatlari nusxasini reabilitatsiya dasturi uchun nodavlat notijorat tashkilotiga yubormoqchi. O‘RQ-547 ga ko‘ra qanday rozilik kerak?

A Mijozning og‘zaki roziligi yetarli

B Mijozning yozma, shu jumladan elektron shakldagi roziligi

C Rozilik shart emas, chunki NNT ham unga yordam ko‘rsatadigan tashkilot

D Mahalla raisining yozma tasdig‘i yetarli

23

javob ›

Yangi ishga kirgan ijtimoiy xodim og‘ir keyslardan keyin tez charchab qolayotganini aytdi, ammo markazda superviziya tashkil etilmagan. O‘RQ-1159 ga ko‘ra superviziyani tashkil etish kimning majburiyati?

A Ijtimoiy xodimning o‘zining

B Ish beruvchining

C Ijtimoiy inspeksiyaning

D Fuqarolar yig‘inining

24

javob ›

Uyga tashrifdan keyin keys hujjatiga yoziladigan qaysi yozuv kasbiy talablarga eng mos keladi?

A Ona dangasa, bolalariga befarq va ularning tarbiyasi bilan shug‘ullanmaydi

B Soat 11:00 da 4 va 6 yoshli bolalar uyda yolg‘iz edi, ona 12:30 da qaytdi

C Oilada ahvol juda yomon, turmush izdan chiqqan, zudlik bilan chora kerak

D Qo‘shnilarning aytishicha ona spirtli ichimlik ichadi, bu aniq haqiqat

25

javob ›

Davlat organida ishlaydigan ijtimoiy xodimga fuqaro o‘z oilasini muhtojlar ro‘yxatiga kiritish evaziga pul taklif qildi. O‘RQ-419 ga ko‘ra xodim qanday yo‘l tutishi shart?

A Pulni qat’iy rad etib, fuqaroni ogohlantirish, lekin bu haqda boshqalarga aytmaslik

B Pulni olib, keyinroq uni rahbariyatga topshirish

C Rad etib, rahbarini yoki huquqni muhofaza qiluvchi organni xabardor qilish

D Oilani ro‘yxatga kiritib, pulni xayriya jamg‘armasiga o‘tkazish

KASBIY ETIKA, MAXFIYLIK VA HUJJAT YURITISH

Javoblar va izohlar

21 C 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

‹ savol

IFSW (2018): o‘z taqdirini o‘zi belgilash — shaxsning o‘z tanlovi va qarorlarini hurmat qilish; ijtimoiy adolat — kamsitish va adolatsiz amaliyotga qarshi turish; maxfiylik — uning chegaralari haqida ham oldindan xabardor qilish; yaxlit shaxs — insonning biologik, psixologik, ijtimoiy va ma’naviy jihatlarini birga ko‘rish.

§ IFSW (2018), 3.1, 4, 6.2, 7

22 B Mijozning yozma, shu jumladan elektron shakldagi roziligi

‹ savol

Salomatlikka oid ma’lumotlar maxsus ma’lumotlardir; ularga ishlov berish uchun subyektning yozma, shu jumladan elektron hujjat tarzidagi roziligi talab etiladi (21-moddaning ikkinchi qismi, 25-modda). Og‘zaki rozilik yoki uchinchi shaxsning tasdig‘i bu talabni almashtirmaydi, ma’lumotni roziligisiz uchinchi shaxsga berish esa 28-moddaga zid.

§ O‘RQ-547, 21, 25, 28-moddalar

23 B Ish beruvchining

‹ savol

40-moddaga ko‘ra xodimning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va kasbiy “kuyib qolish”ning oldini olish maqsadida ish beruvchi superviziyani — uslubiy, maslahat va amaliy yordamni tashkil qilishi shart. Ijtimoiy inspeksiya davlat nazorati organi bo‘lib, superviziyani tashkil etmaydi.

§ O‘RQ-1159, 40-modda

---

24 B Soat 11:00 da 4 va 6 yoshli bolalar uyda yolg‘iz edi, ona 12:30 da qaytdi

‹ savol

Keys yozuvidagi ma’lumot aniq va ishonchli bo‘lishi kerak (O‘RQ-547, 5, 19-moddalar): kuzatilgan faktlar vaqti va manbasi bilan yoziladi; “dangasa”, “befarq” kabi yorliqlar, umumiy baholar va tekshirilmagan mish-mishlar fakt sifatida qayd etilmaydi. Hujjatlarni yuritish ijtimoiy xodim professionalligini baholash mezonlaridan biri (O‘RQ-1159, 36-modda).

§ O‘RQ-1159, 36-modda; O‘RQ-547, 5, 19-moddalar

25 C Rad etib, rahbarini yoki huquqni muhofaza qiluvchi organni xabardor qilish

‹ savol

26-moddaga koʻra davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga koʻndirish maqsadida biror shaxs murojaat etgan barcha hollar toʻgʻrisida oʻz rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart; bu majburiyatni bajarmaslik javobgarlikka sabab boʻladi. Faqat rad etish yetarli emas.

DIQQAT

Pulni rad etish bilan majburiyat tugamaydi — bu holat haqida xabar qilish ham shart.

§ OʻRQ-419, 26-modda

TEZKOR TEKSHIRUV

Javoblar kaliti

01	B	02	D	03	A	04	A	05	D
06	C	07	D	08	A	09	C	10	D
11	C	12	C	13	D	14	B	15	B
16	A	17	B	18	D	19	C	20	A
21	C	22	B	23	B	24	B	25	C

22–25	Yaxshi tayyorgarlik. Endi to‘liq nashrdagi sinov imtihonlarini vaqt bilan yeching.
17–21	Yomon emas. Xato qilgan bloklaringiz konspektini qayta o‘qing.
12–16	O‘rtacha. Har kuni bitta blok: konspekt, so‘ng savollar.
0–11	Konspektdan boshlang, keyin savollarni vaqtsiz yeching.

3

Keys tahlili

Nazorat sinovining ikkinchi bosqichi — keys tahlili, 50 ball (VMQ-461, 1-ilova, 16–17-bandlar). Uning shakli va baholash mezonlari e’lon qilinmagan, shuning uchun bu bo‘lim — mualliflik usuli va namunaviy javoblar.

1. Vaziyat va ehtiyojlar
2. Xavf va xavfsizlik
3. Huquqiy asos
4. Harakat rejasi
5. Etika va hamkorlik

3	5	33
vaziyat shu nashrda	qism — har javobda	keys to‘liq nashrda

KEYS TAHLILI

Yechish usuli

Har keysni besh qism bo‘yicha yozing. Shkala mualliflik: rasmiy mezon emas, o‘zingizni tekshirish uchun — har qism 10 ball, jami 50.

JAVOB TUZILMASI

1. Vaziyat va ehtiyojlar	kim mijoz, qanday og‘ir ijtimoiy vaziyat; asosiy, xavfsizlik, sog‘liq, ta’lim, daromad, ijtimoiy aloqa ehtiyojlari; kuchli tomonlar va resurslar
2. Xavf va xavfsizlik	darhol xavf bormi (bola, zo‘ravonlik, sog‘liq, uy-joy), nima birinchi; rozilik kerakmi yoki holat kechiktirib bo‘lmaydigan (O‘RQ-1159, 25-modda)
3. Huquqiy asos	qaysi qonun moddasi yoki qaror bandi; mijozning huquqlari; ijtimoiy xodimning majburiyatlari va vakolat chegarasi — moddani aniq ko‘rsating

4. Harakat rejasi	aniq qadamlar tartib bilan: kim, nima, qachon; baholash, individual reja, xizmat va yo‘naltirish, multidissiplinar guruh, monitoring, keysni yopish mezoni
5. Etika va hamkorlik	mijoz ishtiroki va rozilik, maxfiylik, qadr-qimmat, kamsitmaslik, paternalizmdan qochish, hujjatlash, superviziya

O‘ZINGIZNI BAHOLANG (HAR QISM UCHUN)

10 ball	namunaviy javobdagi asosiy fikrlar to‘liq, aniq va to‘g‘ri tartibda
5 ball	asosiy fikrlarning yarmi bor yoki ular umumiy, aniq emas
0 ball	qism yozilmagan yoki xato qaror: xavfni sezmaslik, maxfiylikni buzish, mijoz o‘rniga qaror qabul qilish

YOZISH BO‘YICHA MASLAHAT

- Avval xavfsizlik: bola yoki zo‘ravonlik xavfi bo‘lsa, rejaning birinchi qadami — shu.
- Mijoz o‘rniga qaror qabul qilmang: reja u bilan birga tuziladi va uning roziligi bilan amalga oshadi.
- Qonun bermagan pul, imtiyoz yoki xizmatni va’da qilmang; vakolatingizdan tashqari ishni tegishli organga yo‘naltiring.
- Qadamlarni tartib bilan yozing: har biriga mas’ul va asosiy qadamlarga muddat (bugun, shu hafta, 1 oy); keysni yopish mezonini ko‘rsating.
- VMQ-539 ning 1- va 2-ilovalari PQ-319 eksperimenti doirasida tasdiqlangan (VMQ-539, 2-band); roziliksiz yordamning umumiy qonuniy asosi — O‘RQ-1159, 25-modda (kechiktirib bo‘lmaydigan hollar).

BOLALAR VA OILALAR · 1-KEYS

Ota-onasi chet elda ishlayotgan bolalar va buvisi

Tog‘oldi qishlog‘idagi mahalla raisi ijtimoiy xodimga xabar berdi: ota-onasi 8 oydan beri chet elda mehnat migratsiyasida bo‘lgan aka-uka Jahongir (13 yosh) va Sanjar (8 yosh) buvisi Oysha opa (76 yosh) qarovida yashaydi. Buvi qandli diabet tufayli uydan kam chiqadi, ko‘rishi susaygan. Sinf rahbarining aytishicha, Jahongir oxirgi oyda 11 kun darsga kelmagan, bozorda arava tortib pul topadi.

Ota-ona pulni noqulay vaqtlarda, ba’zan ikki oyda bir marta yuboradi; uyda oziq-ovqat kam, qishga o‘tin g‘amlanmagan. Bolalarga vasiylik yoki homiylik rasmiylashtirilmagan, ota-ona ketishdan oldin hech qanday ariza qoldirmagan. Oysha opa nevaralarini “hech kimga bermayman” deydi va yordamdan cho‘chiydi: “keyin bolalarni internatga olib ketishadi”.

Sanjar maktabga qatnaydi, lekin uy vazifalarini bajarmaydi. Ota-ona bilan telefon orqali bog‘lanish mumkin. Oilaning Ijtimoiy reyestrdagi holati noma’lum.

TOPSHIRIQLAR namunaviy javob ›

1. **Oila va bolalarning asosiy ehtiyojlari hamda xavf omillarini aniqlang; birinchi navbatda nima qilinadi?**
2. **Bolalarning huquqiy holati (vasiylik masalasi) qaysi normalar asosida va kim bilan hal qilinadi?**
3. **Individual reja, monitoring va ishni yopish mezonlarini ko‘rsating.**

Mashq Avval o‘zingiz yozing: besh qism, 20–25 daqiqa. Keyin namunaviy javob bilan solishtiring va har qismga 0–10 ball qo‘ying.

1-KEYS · NAMUNAVIY JAVOB

Ota-onasi chet elda ishlayotgan bolalar va buvisi

‹ vaziyatga qaytish

1. VAZIYAT VA EHTIYOJLAR 10 BALL

- Mijoz — oila: ikki voyaga yetmagan bola va keksa buvi. Og‘ir ijtimoiy vaziyat: ota-ona qaramog‘i amalda yo‘q, nazorat zaif, daromad noturg‘un, ta’lim uzilmoqda (O‘RQ-1159, 3-modda).
- Ehtiyojlar: bolalar uchun kattalar nazorati va qonuniy vakil, Jahongirning maktabga qaytishi, ovqat va isitish; buvi uchun tibbiy kuzatuv va parvarishda yordam.
- Kuchli tomonlar: buvi bolalarni sevadi va oilani saqlamoqchi; ota-ona bilan aloqa bor; Sanjar maktabga qatnaydi; mahalla xabardor.

2. XAVF VA XAVFSIZLIK 10 BALL

- Xavf ortib bormoqda: 13 yoshli bola dars vaqtida ishlaydi (ishga qabul — 16 yoshdan, yengil ish — 15 yoshdan: O‘RQ-139, 20-modda), qish yaqin, buvining sog‘lig‘i zaif.

- Hayotga bevosita tahdid yo‘q — xizmatlar oila roziligi bilan (O‘RQ-1159, 25-modda); vasiylik organiga xabar esa roziliksiz ham majburiy (O‘RQ-139, 11-modda). Isitish va ovqat shu hafta hal qilinadi.
- Bolalar qarovsiz qolsa (masalan, buvi kasalxonaga tushsa) — kechiktirib bo‘lmaydigan hol: yordam roziliksiz ko‘rsatiladi (O‘RQ-1159, 25-modda; eksperiment tumanlarida VMQ-539, 2-ilova, I-bo‘lim, 4-band).

3. HUQUQIY ASOS 10 BALL

- Ota-ona 3 oydan ortiq chet elga ketganda bolaga vasiy yoki homiy tayinlash choralarini ko‘rishi shart, ariza ketishdan kamida bir oy oldin beriladi (O‘RQ-364, 20-modda; ariza — 26-modda).
- Ota-onasi 3 oydan ortiq chet elga ketgan bolalar haqida vasiylik organiga — voyaga yetmaganlar bo‘yicha “Inson” markaziga — xabar beriladi (O‘RQ-139, 11-modda; O‘RQ-364, 7-modda; eksperimentda VMQ-539, 1-ilova, 48-band).
- Vasiy tayinlashda qarindoshlar imtiyozli, bolaning istagi inobatga olinadi (O‘RQ-364, 21-modda; O‘RQ-139, 15-modda). Darsga uzrsiz kelmaslik — yakka profilaktika toifasi (O‘RQ-263, 20-modda).

4. HARAKAT REJASI 10 BALL

- 1. Shu hafta uyga tashrif: buvi va har bir bola bilan alohida suhbat, ehtiyoj va kuchli tomonlarni baholash; bolalarga yoshiga mos tushuntirish.
- 2. Tashrif kuni ma’lumotni markazning vasiylik mutaxassisiga yuborish (O‘RQ-139, 11-modda); ota-ona bilan video qo‘ng‘iroq: vasiy tayinlash majburiyati, notarial ariza, nomzod (buvi yoki boshqa qarindosh).
- 3. Maktab bilan: Jahongirning qaytishi, o‘zlashtirishni tiklash, to‘garak; bozordagi ishni to‘xtatish. Mahalla orqali o‘tin va ovqat; Ijtimoiy reyestr bo‘yicha holatni tekshirish.
- 4. Buvini oilaviy poliklinika kuzatuviga ulash; oyiga 2 marta monitoring. Yopish mezoni: vasiy rasmiylashgan, Jahongir 2 oy uzluksiz o‘qiydi, uy ta’minoti barqaror.

5. ETIKA VA HAMKORLIK 10 BALL

- Buvining qo‘rquvini tan olish, vasiylik organiga xabar sababini ochiq aytish: maqsad bolalarni oilada saqlash; muassasa — oxirgi chora (O‘RQ-139, 24-modda).
- Bolalarning fikri so‘raladi; Jahongirni ishlagani uchun uyaltirmaslik, uning oilaga yordam berish istagini kuchli tomon sifatida ko‘rish.

- Oila ma’lumoti faqat ish uchun zarur mutaxassislarga beriladi (O‘RQ-547, 28-modda); vasiylik qarori — vakolatli organda, ijtimoiy xodim uni o‘zi hal qilmaydi.

KO‘P UCHRAYDIGAN XATOLAR

- Bolalarni darhol “Mehribonlik” uyiga joylashni taklif qilish — oilaviy muhit ustuvorligiga zid, buvining ishonchi yo‘qoladi.
- “Bu oilaviy masala, ota-ona qaytgach hal bo‘ladi” deb kutish — 3 oylik qoida, xabar berish majburiyati (O‘RQ-139, 11-modda) va bolaning ta’lim huquqi e’tiborsiz qoladi.
- Jahongirni mahalla yig‘inida “jazolash” — sabab (pulsizlik, nazorat yo‘qligi) bartaraf etilmaydi, bola ishonchi yo‘qoladi.

§ O‘RQ-364, 7, 20, 21, 26-moddalar; O‘RQ-139, 11, 15, 20, 24-moddalar; O‘RQ-263, 20-modda; O‘RQ-1159, 25-modda; VMQ-539, 1-ilova, 48-band

TAZYIQ, ZO‘RAVONLIK VA ODAM SAVDOSI · 2-KEYS

Sir saqlashni so‘ragan ayol: birinchi murojaat

Viloyat markazidagi mahallada ishlaydigan ijtimoiy xodimga qabul vaqti tugaganidan keyin Dilnoza (34 yosh) keldi. U eri va ikki farzandi (7 va 10 yosh) bilan ko‘p qavatli uyda yashaydi, maktabda farrosh bo‘lib ishlaydi. Eri uning ish haqi kartasini o‘zida saqlaydi, pul bermaydi, har kuni haqorat qiladi, “uydan haydayman, bolalarni ko‘rsatmayman” deb qo‘rqitadi.

O‘tgan hafta janjal paytida itarib yuborgan, Dilnozaning yelkasi lat yegan. Bolalar janjallarni ko‘rib turadi, kichigi kechalari qo‘rqib uyg‘onadi. Dilnoza: “Profilaktika inspektoriga bormayman, erim bilsa battar bo‘ladi. Qarindoshlar ham ajrimni sharmandalik deydi. Faqat maslahat bering va hech kimga aytmang” dedi.

Boshqa shaharda yashovchi singlisi “kerak bo‘lsa, bolalar bilan kelib tur” degan. Ijtimoiy xodim bu oilani avval bilmagan, oila ijtimoiy reyestrda yo‘q.

TOPSHIRIQLAR namunaviy javob ›

1. **Dilnoza va bolalarning ehtiyojlari hamda xavf darajasini baholang: nima zudlik bilan qilinishi kerak?**

2 **Uning “hech kimga aytmang” degan iltimosiga qanday javob berasiz va nima uchun?**

3 **Birinchi uchrashuvdan keyingi 7 kunlik harakat rejasini tuzing.**

Mashq Avval o‘zingiz yozing: besh qism, 20–25 daqiqa. Keyin namunaviy javob bilan solishtiring va har qismga 0–10 ball qo‘ying.

2-KEYS · NAMUNAVIY JAVOB

Sir saqlashni so‘ragan ayol: birinchi murojaat

‹ vaziyatga qaytish

1. VAZIYAT VA EHTIYOJLAR — 10 BALL

- Mijoz — Dilnoza va ikki farzandi. Haqorat va tahdid, ish haqini nazorat qilish, itarib yuborish — ruhiy, iqtisodiy va jismoniy zo‘ravonlik belgilari (O‘RQ-561, 3-modda).
- Ehtiyojlar: xavfsizlik, tibbiy ko‘rik, o‘z puli va hujjatlari ustidan nazorat, huquqiy maslahat, psixologik yordam, bolalarning xotirjamligi.
- Kuchli tomonlar: o‘z ishi va daromadi bor, yordam so‘rab o‘zi kelgan, singlisi boshpana taklif qilgan, bolalarga g‘amxo‘r.

2. XAVF VA XAVFSIZLIK — 10 BALL

- Xavf ortib bormoqda: so‘zdan jismoniy ta’sirga o‘tilgan, bolalarni olib qo‘yish bilan tahdid bor. Birinchi vazifa — bugungi kechaning xavfsizligi.
- Kechiktirib bo‘lmaydigan holda yordam roziliksiz ko‘rsatiladi (O‘RQ-1159, 25-modda; eksperiment tumanlarida — VMQ-539, 2-ilova, I-1). Bolalar zo‘ravonlik guvohi: vasiylik organiga xabar (O‘RQ-139, 11-modda).

- Xavfsizlik rejasi: xavf tug‘ilsa boriladigan joy, hujjatlar nusxasi va zarur narsalar, ishonchli odam, kelishilgan ogohlantirish so‘zi; jarohat uchun tibbiy ko‘rik.

3. HUQUQIY ASOS 10 BALL

- Jabrlanuvchi vakolatli organ yoki sudga ariza berish, bepul huquqiy, psixologik, tibbiy yordam olish, himoya orderi talab qilish huquqiga ega (O‘RQ-561, 4-modda); bepul davolanadi (11-modda).
- Himoya orderini ichki ishlar organi 24 soat ichida 30 kungacha beradi (23-modda); talabiga ko‘ra maxsus markazga 6 oygacha joylashtiriladi, bolalari ham birga joylashtirilishi mumkin (28-modda).
- Himoyani amalga oshiruvchi organlar zo‘ravonlik fakti aniqlansa, ichki ishlar organiga darhol xabar qiladi (20-modda); Agentlik va “Inson” markazlari shunday organ (PQ-319, 7-band; PF-82, 2-band).
- Jabrlanuvchiga yordam bergan shaxslarga ma’lum bo‘lgan shaxsga doir ma’lumotlar qo‘riqlanadi, oshkor qilgan javobgar bo‘ladi (O‘RQ-561, 30-modda).

4. HARAKAT REJASI 10 BALL

- 1. Shu kuni: xavfni baholash, xavfsizlik rejasi; huquqlar va yordam turlarini tushuntirish (17-modda), ishonch telefoni borligini aytish (18-modda).
- 2. Shu kuni, xabardan oldin Dilnozaga aytiladi: order 24 soatda berilib, eri shartlardan xabardor qilinadi (23-modda); bu kecha qayerda tunashni (singlisi, maxsus markaz) u hal qiladi; so‘ng inspektorga xabar (20-modda).
- 3. Shu kuni: bolalar haqida vasiylik organi — “Inson” markaziga xabar (O‘RQ-364, 7-modda); order topshirish vaqti inspektor bilan kelishiladi; 1–3 kun: tibbiy ko‘rik, psixolog, yurist, roziligi bilan maktab psixologi.
- 4. 7 kun ichida: u bilan birga individual reja (maqsad, mas’ul, muddat); keyingi uchrashuv xavfsiz joyda, xavf har hafta qayta baholanadi.

5. ETIKA VA HAMKORLIK 10 BALL

- Maxfiylik chegarasi birinchi suhbatdayoq halol aytiladi (IFSW (2018), 6.2-band): xabar faqat qonun talab qilgan organlarga beriladi; qarindosh, qo‘shni, ish joyiga aytilmaydi.
- Ajrashish, boshpana yoki uyda qolish haqidagi qaror — Dilnozaniki (O‘RQ-1159, 26-modda; IFSW (2018), 4-prinsip); xodim uni ayblamaydi va bosim o‘tkazmaydi.

- Eriga profilaktika suhbati qonundagi tartibda (O‘RQ-561, 22-modda), muntazam ish — ichki ishlar (8-modda); Dilnoza bilan xavfsizlik choralari kelishilmasdan eriga murojaat qilinmaydi. Har qadam hujjatlanadi.

KO‘P UCHRAYDIGAN XATOLAR

- “Hech kimga aytmayman” deb va’da berish: qonun ichki ishlar organiga xabar berishni talab qiladi, buzilgan va’da esa ishonchni butunlay yo‘qotadi.
- “Oilaviy masala, sabr qiling, yarashing” deyish yoki aksincha ajrashishga undash — xavfni e’tiborsiz qoldirish yoki mijoz o‘rniga qaror qabul qilish.
- Erini mahallaga chaqirib, Dilnoza aytganlarini yuziga aytish: tajovuzkor manbani biladi va ayolga xavf keskin ortadi.

§ O‘RQ-561, 3, 4, 8, 11, 17, 18, 20, 22, 23, 28, 30-m.; O‘RQ-139, 11-m.; O‘RQ-364, 7-m.; PQ-319; PF-82, 2-b.; VMQ-539, 2-ilova; O‘RQ-1159, 25, 26-m.; IFSW (2018)

KAM TA’MINLANGAN VA BOSHQA ZAIF GURUHLAR · 3-KEYS

Ijtimoiy reyestrga rad javobi: apellyatsiya yo‘li

Tuman markazidagi mahallada yashovchi Malika (39 yosh) va eri Anvar (43 yosh) to‘rt farzandni tarbiyalaydi; Anvar maktabda qorovul, ish haqi kam, Malika uy bekasi. Oila mahalla ijtimoiy xodimi orqali Ijtimoiy reyestrga kirish uchun ariza bergan. Savolnoma to‘ldirilgach, mahalla yettiligi xulosasida 19 yashar o‘g‘li Jasur “norasmiy band” deb qayd etilgan: u yozgi ta’tilda avtomobil yuvish shoxobchasida ishlagan.

Normativ daromad qo‘shilgani sababli oila rad javobini SMS orqali olgan. Aslida Jasur texnikumning kunduzgi bo‘limida o‘qiydi, sentyabrdan beri ishlamaydi, o‘qish joyidan ma’lumotnoma olgan. Xulosa tasdiqlanganiga 12 kun bo‘ldi. Ijtimoiy xodim o‘sha kuni ta’tilda bo‘lgan va xulosani imzolamagan. Malika g‘azab bilan keldi: “Siz ham yettilikdasiz, tizimda o‘zingiz to‘g‘rilab qo‘ying, bo‘lmasa yuqoriga yozaman”. Oilaning 2 yashar farzandi tez-tez kasal bo‘ladi, kommunal to‘lovlardan qarz bor.

TOPSHIRIQLAR

namunaviy javob ›

1. **Oila nima uchun rad javobini olgan va bu qarorni o‘zgartirishning qonuniy yo‘li qanday?**
2. **Malikaning “tizimda o‘zingiz to‘g‘rilab qo‘ying” degan talabiga qanday javob berasiz?**
3. **Shikoyat ko‘rib chiqilguncha oila ehtiyojlari bo‘yicha nima qilish mumkin?**

Mashq Avval o‘zingiz yozing: besh qism, 20–25 daqiqa. Keyin namunaviy javob bilan solishtiring va har qismga 0–10 ball qo‘ying.

3-KEYS · NAMUNAVIY JAVOB

Ijtimoiy reyestrga rad javobi: apellyatsiya yo‘li

‹ vaziyatga qaytish

1. VAZIYAT VA EHTIYOJLAR 10 BALL

- Mijoz — 6 kishilik oila: daromad kam, kichik bola tez-tez kasal, kommunal qarz bor; reyestrga kirish rad etilgani uchun davlat qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalana olmayapti.
- Rad sababi — xulosada Jasur “norasmiy band” deb qayd etilib, normativ daromad hisoblangani (VMQ-35, 1-ilova, 15, 21, 25-bandlar); oila buni noto‘g‘ri deb hisoblaydi va hujjati bor.
- Kuchli tomonlar: Malika faol, hujjat yig‘gan, shikoyat muddati hali o‘tmagan.

2. XAVF VA XAVFSIZLIK 10 BALL

- Hayot uchun darhol xavf yo‘q; bolaning sog‘lig‘i va qarz bosimi kuzatiladi. Asosiy xavf — 30 kunlik shikoyat muddatini o‘tkazib yuborish.
- G‘azab tushunarli: xodim xotirjam tinglab, ishonchni tiklaydi — aks holda oila yordamdan butunlay voz kechishi mumkin.

3. HUQUQIY ASOS 10 BALL

- Savolnoma, xulosa, dalolatnoma ustidan shikoyatni tuman hokimligi huzuridagi apellyatsiya kengashi ko‘radi (VMQ-35, 4-ilova, 26-band); hujjat kuchga kirganidan 30 kun ichida (31-band).
- Shikoyatni “Inson” markazi xodimi manfaatdor shaxs nomidan to‘ldiradi yoki u YIDXP, “Ijtimoiy karta” orqali o‘zi beradi (27-band); kengash 15 kun ichida ko‘radi (33-band).
- Kengash hujjatni o‘z kuchida qoldiradi, o‘zgartirishni yettilikka yuklaydi yoki bekor qiladi (42-band); shikoyat ixtiyoriy, sudga murojaatni cheklamaydi (7, 45-bandlar).
- Xodim ma’lumotni to‘g‘ri va o‘z vaqtida kiritish uchun javob beradi (1-ilova, 46-band), lekin yettilik tasdiqlagan xulosani yakka o‘zi o‘zgartirmaydi.

4. HARAKAT REJASI 10 BALL

- 1. Bugun: Malikani tinglash, rad sababini xulosa asosida tushuntirish, shikoyat muddati va tartibini aytish.
- 2. Bugun: Malikaning roziligi bilan shikoyatni elektron to‘ldirishga yordam, texnikum ma’lumotnomasini ilova qilish; ro‘yxatga olinganini tekshirish.
- 3. Majlis haqida xabar kelganda (kamida 3 kun oldin) tayyorlanishga yordam; videoaloqa orqali qatnashish mumkinligini aytish (34, 38-bandlar).

- 4. Parallel: bolaning tibbiy kuzatuvi, kommunal qarz bo‘yicha mavjud imkoniyatlar haqida ma’lumot; kengash qaroridan keyin keyingi qadamni birga belgilash.

5. ETIKA VA HAMKORLIK 10 BALL

- Tizimdagi ma’lumotni norasmiy “to‘g‘rilash” — qonunbuzarlik: xodim buni ochiq aytadi va o‘rniga qonuniy yo‘lni amalda ko‘rsatadi.
- Xodim yettilik a’zosi bo‘lsa ham, shikoyat huquqini qo‘llab-quvvatlaydi (O‘RQ-1159, 26-modda); “shikoyat qilsangiz, ishingiz qiyinlashadi” degan bosim yo‘q.
- Natija va’da qilinmaydi — qaror kengashniki; har murojaat va berilgan tushuntirish hujjatlanadi.

KO‘P UCHRAYDIGAN XATOLAR

- Xulosani tizimda o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga urinish yoki faqat “keyingi oy yana ariza bering” deb shikoyat huquqini aytmaslik.
- “Kengash albatta to‘g‘rilaydi, nafaqa tushadi” deb va’da berish — qaror xodimga bog‘liq emas.
- Malikaning “yuqoriga yozaman” degan gapidan ranjib, uni yettilik oldida “janjalkash” deb ta’riflash — shikoyat huquqiga bosim va kamsitish.

§ VMQ-35, 1-ilova, 15, 21, 25, 46-bandlar; 4-ilova, 7, 26, 27, 31, 33, 34, 38, 42, 45-bandlar; O‘RQ-1159, 26-modda

1

Suhbatga tayyorgarlik

Ijtimoiy xodim lavozimiga ishga qabul suhbati uchun. Rasmiy savollar va baholash mezonlari e’lon qilinmagan: bu — mualliflik mashqi, javob rejasi va maslahat bilan.

- Suhbat haqida nima ma’lum
- Komissiya nimani ko‘rishi mumkin
- Olti yo‘nalish bo‘yicha savollar
- Javob qoliplari

1	5	10
mashq bileti	savol biletda	bilet to‘liq nashrda

SUHBATGA TAYYORGARLIK

Tayyorgarlik asoslari

Suhbat haqida nima ma’lum

- Ijtimoiy xodim lavozimiga ishga qabul suhbatining rasmiy savollar ro‘yxati va baholash mezonlari ochiq e’lon qilinmagan (2026-yil oktabr holatiga). Suhbat shakli va savollarini ish beruvchi belgilaydi
- Shuning uchun bu bo‘lim — mualliflik mashqi. “Haqiqiy savollar” yoki “rasmiy rubrika”ni va’da qilgan manbalarga ishonmang
- Qonunda aniq yozilgani: tegishli ma’lumotga, kasbiy salohiyatga hamda ish tajribasiga ega shaxslar ijtimoiy xodim sifatidagi faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega (O‘RQ-1159, 37-modda)
- Professionallik darajasi va shaxsiy fazilatlar 36-moddada sanab o‘tilgan — tayyorgarlikning tayanchi shu. Vazifalar — 34-, majburiyatlar — 35-moddada
- Lavozimlar to‘rt toifaga bo‘linadi: toifasiz, III, II, I. “Inson” markazidan tashqari davlat organlari va nodavlat tashkilotlarda faqat III, II yoki I toifali ijtimoiy xodimlar ishlaydi (VMQ-461, 2-band “a”)

- “Inson” markazlarida toifa tartibi: 2026-yil 1-oktabrdan Xorazm va Toshkent viloyatlarida, 2027-yil 1-yanvardan Andijon viloyati va Toshkent shahrida, 1-apreldan barcha hududda; IIV va SOS uyushmasida 1-iyundan (VMQ-461, 3-band)
- 2027-yil 1-apreldan “Inson” markazlarida ixtisoslashgan lavozimlar (tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar), bosh ijtimoiy xodim va supervayzerga II yoki I toifa kerak (VMQ-461, 4-band)
- Davlat organlari va tashkilotlarida ijtimoiy xodim lavozimi kamida bir shtat birligi miqdorida kiritiladi (VMQ-461, 2-band “g”) — ish o‘rni faqat “Inson” markazlarida emas
- Qonunda ijtimoiy xodim bo‘lib ishlashga yo‘l qo‘yilmaydigan holatlar sanab o‘tilgan (O‘RQ-1159, 42-modda). Talablar va hujjatlar ro‘yxatini e’londan va ish beruvchidan aniqlang

§ O‘RQ-1159, 34–37-, 42-moddalar; VMQ-461, 2-, 3-, 4-bandlar. Holat: 2026-yil oktabr

Komissiya nimani ko‘rishi mumkin

Etika, huquq va maxfiylik	Qonunda: odob-axloq qoidalariga rioya, mijoz huquqlarini himoya qilish, shaxsga doir ma’lumot maxfiyligi. Kuchli javobda rozilik, maxfiylik chegarasi va mijoz huquqini o‘zingiz eslaysiz.
Rejalashtirish, hujjat, hisobdorlik	Qonunda: o‘z ishini rejalashtirish va muvofiqlashtirish, hujjat yuritish, hisobdorlikni tashkil etish. Kuchli javobda: kim, nima, qachon; nima qayd etiladi, kimga hisobot beriladi.
O‘zini anglash, tanqidiy fikr	Kuchli va zaif tomoningizni, xatoingizni ochiq aytasiz; bitta manbaga ishonib xulosa chiqarmaysiz, faktni tekshirasiz.
Samarali muloqot	Qonunda: mijozni eshitish va unga o‘rinli savol berish. Kuchli javobda: ochiq savol, faol tinglash, tushunganingizni qayta ifodalash.

Betaraflik va ijtimoiy adolat	Tanish-bilish, mahalla bosimi yoki shaxsiy simpatiya qarorga ta’sir qilmaydi; yordam ehtiyoj va mezon asosida beriladi.
Insonparvarlik va hurmat	Har bir shaxs va oilaning qadr-qimmati va huquqlari. Kuchli javobda qaror mijoz uchun emas, mijoz bilan birga qabul qilinadi; kamsituvchi so‘z yo‘q.
Baho bermaslik, bag‘rikenglik	Mijozning turmush tarzi, e’tiqodi, o‘tmishi — hukm uchun asos emas. Kuchli javobda “bunday oilalar...” kabi umumlashma bo‘lmaydi.
Diqqat	Bandlar nomi — qonundan (O‘RQ-1159, 36-modda: birinchi ikkitasi — professionallik darajasi, qolganlari — shaxsiy fazilatlar). “Kuchli javobdagi ko‘rinishi” — muallif talqini, rasmiy baholash mezoni emas.

§ O‘RQ-1159, 36-modda (professionallik darajasi va shaxsiy fazilatlar); izohlar — muallif talqini

Olti yo‘nalish bo‘yicha savollar

Kasbga motivatsiya va qadriyatlar	Nega ijtimoiy ish, qaysi yo‘nalish, kasbiy o‘sish, natijani o‘lchash, xato va saboq, o‘zingizni tanishtirish. Qolip: qadriyat → tajriba (*STAR*) → maqsad.
Qonun va ijtimoiy himoya tizimi	Vazifa va majburiyatlar, prinsiplar, rozilik, muhtojlikni aniqlash, xizmat darajalari, foydalanuvchi huquqlari, malaka sertifikati. Qolip: me’yor → mazmun → amaliyotda.
Keys va ish metodlari	Birinchi tashrif, ehtiyojlarni baholash, keys menejment, individual reja, rad etayotgan oila, birinchi oy, keysni yopish. Qolip: model → bosqichlar → misol.
Etika, maxfiylik va chegaralar	Qo‘shnining savoli, maxfiylik chegarasi, sovg‘a, hujjat yuritish, o‘z-o‘zini belgilash, chegaralar, raqamli ma’lumot. Qolip: qadriyat → me’yor → harakat.

Muloqot va hamkorlik	Mahalla bilan kelishmovchilik, multidissiplinar guruh, faol tinglash, bola bilan suhbat, jahli chiqqan fuqaro, rahbar bilan fikr ayriligi. Qolip: tinglash → aniqlashtirish → kelishuv.
Murakkab vaziyatda qaror	Xavf ostidagi bola, yolg‘iz keksa, zo‘ravonlik, o‘z joniga qasd qilish xavfi, uysiz shaxs, kuyib qolish. Qolip: vaziyat → xavf → asos → harakat → hamkorlik.

§ Yo‘nalishlar — muallif tasnifi; biletdagi har bir savol shulardan biriga tegishli

Javob qoliplari

Tajriba savoli — *STAR*	Vaziyat → Vazifa → Harakat → Natija. “Biz” emas, “men” nima qildim; natijani aniq o‘zgarish bilan ayting, oxirida — nimani o‘rgandim. Mijozning ismi va manzili aytilmaydi.

Vaziyat savoli	Vaziyat → Xavf → Asos → Harakat → Hamkorlik. Avval xavfsizlik (ayniqsa bolaning), keyin qonun va rozilik, so‘ng aniq qadamlar va kimni jalb qilishingiz.
Qonun savoli	Me’yor → Mazmun → Amaliyotda. Qaysi hujjat va modda (aniq bilsangiz), u nima deydi, ishingizda qanday qo‘llaysiz. Taxminiy raqam yoki band aytmang.
Metod savoli	Model nomi → bosqichlar → misol. Masalan, keys menejment sikli: har bosqichda nima qilasiz va mijoz qanday ishtirok etadi.
Motivatsiya savoli	Qadriyat (1 gap) → uni ko‘rsatgan voqea → shu lavozimda nima qilmoqchisiz. Shior emas, aniq voqea.

Vaqt	Rasmiy vaqt e’lon qilinmagan. Mashqda bir javobga 2–3 daqiqa: tezis 20 soniya, asosiy qism 1,5–2 daqiqa, xulosa 20 soniya. Qisqa va tartibli javob uzun javobdan kuchli.

§ *STAR* — suhbatlarda keng qo‘llanadigan usul; vaziyat qolipi kitobdagi keys tahlili (mualliflik) usuliga mos; qolganlari — muallif tavsiyasi

MUALLIFLIK MASHQI · 5 SAVOL, JAVOB REJASI BILAN

1-mashq bileti

1 KASBGA MOTIVATSIYA VA QADRIYATLAR

Nega aynan ijtimoiy ishni tanladingiz? Bu kasbda sizni nima ushlab turadi?

- Shaxsiy turtki: bitta aniq voqea — ko‘ngillilik, o‘qish amaliyoti, hayotiy tajriba; umumiy “odamlarga yordam berishni yaxshi ko‘raman” bilan cheklanmang
- Kasb mazmuni: ijtimoiy ish — ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning (oilalarning) imkoniyatlari va salohiyatini oshirishga ko‘maklashadigan kasbiy faoliyat sohasi (O‘RQ-1159, 3-modda)
- Qadriyatlar: ijtimoiy adolat, inson huquqlari, jamoaviy mas’uliyat, xilma-xillikni hurmat qilish — IFSW global ta’rifida (2014) markaziy prinsiplar
- Yondashuv: “ularga rahmim keladi” emas, “ular o‘z hayotini o‘zi boshqarishiga ko‘maklashaman” — imkoniyatlarni kengaytirish (*empowerment*)
- Realizm: ish hissiy og‘ir, natija sekin bo‘lishi mumkin; buni bilasiz va superviziyadan foydalanishga tayyorsiz (40-modda)
- Xulosa: shu markazda yoki mahallada nimaga hissa qo‘shmoqchisiz — bitta aniq yo‘nalish

Maslahat Javobni bitta real voqea atrofida quring — umumiy so‘zlardan ko‘ra aniq tajriba yaxshiroq eslab qolinadi.

2 QONUN VA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI

Qonunga ko‘ra ijtimoiy xodimning vazifalari va majburiyatlari nimalardan iborat?

- Vazifalar (O‘RQ-1159, 34-modda): aholining ijtimoiy ish haqidagi xabardorligini oshirish; standartlarga rioya etib ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatishni tashkil etish
- Zaruratga ko‘ra murojaatni respublika va mahalliy ijro etuvchi organlar, mahalla, NNT, tadbirkorlarga ko‘rib chiqish va qaror uchun yuborish; kamsitishning har qanday shakliga qarshi turish
- Yashash, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, qonun oldida tenglik, mehnat, ta’lim, fikrlash huquqlarini targ‘ib qilish (34-modda)
- Majburiyatlar (35-modda): qonunchilikka rioya; muammo va ehtiyojlarni aniqlash, og‘ir vaziyatdan olib chiqishga ko‘maklashish; ishni foydalanuvchilarni jalb qilib olib borish
- Shuningdek: mustaqillik ko‘nikmalarini oshirishga ko‘maklashish; baholashda to‘plangan, shu jumladan mol-mulkka doir ma’lumotlar maxfiyligi; hamkorlik; malakani tizimli oshirish
- Multidissiplinar guruh tarkibida ishtirok etish (35-modda). Farqni o‘z talqiningiz sifatida ayting: 34-modda — faoliyat yo‘nalishlari, 35-modda — har bir ishda bajarilishi shart bo‘lgan talablar

Maslahat Ro‘yxatni yodlab sanamang: 3–4 bandni ayting va har biriga mahalladagi ishdan bitta misol qo‘shing.

3 KEYS VA ISH METODLARI

Siz biriktirilgan mahalladagi oilaga birinchi marta uyga borasiz. Tashrifni qanday rejalashtirasiz va o‘tkazasiz?

- Tayyorgarlik: oila haqida ma’lum faktlar, tashrif maqsadi, vaqtni oldindan kelishish; o‘z xavfsizligingiz — qayerga borayotganingizni hamkasbga aytib qo‘yish
- Tanishuv: o‘zingizni, lavozimingizni va kelish maqsadini tushuntiring — foydalanuvchi ijtimoiy xodim haqida ma’lumot olish huquqiga ega (O‘RQ-1159, 26-modda)
- Ishonch: hurmat, shoshilmaslik, faol tinglash; savollar ochiq, tergov ohangisiz; maxfiylik va uning chegaralarini tushuntirish
- Dastlabki baholash: uy sharoiti, oila a’zolari, ehtiyojlar va kuchli tomonlar; xonadon ahvoli va ehtiyojni o‘rganish — ijtimoiy xodimlar guruhi vazifasi (PF-82, 5-band)
- Va’da bermaslik: yordam ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topish mezonlari va qonundagi asoslar bilan ko‘rsatiladi (24-, 25-moddalar); keyingi qadam va uchrashuv sanasini oila bilan birga kelishish
- Tashrifdan keyin: o‘sha kuni faktlarni qayd etish — baho va taxmin emas, ko‘rilgan va eshitilgan narsalar

Maslahat Birinchi tashrifning asosiy natijasi — ishonch. Hamma narsani bir kunda bilib olishga urinmang.

4 ETIKA, MAXFIYLIK VA CHEGARALAR

Mijozingizning qo‘shnisi ko‘chada sizni to‘xtatib: “Ularning uyida nima bo‘lyapti? Yordam berasizlarmi?” deb so‘radi. Qanday javob berasiz?

- Hech qanday ma’lumot bermaysiz, oila sizning mijozingiz ekanini ham tasdiqlamaysiz: maxfiylik — majburiyat (O‘RQ-1159, 35-modda) va foydalanuvchi huquqi (26-modda)
- Shaxsga doir ma’lumot subyekt roziligisiz yoki boshqa qonuniy asossiz uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi (O‘RQ-547, 28-modda)
- Xodim vazifasini bajarish chog‘ida ma’lum bo‘lgan shaxsga doir ma’lumot oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart (O‘RQ-547, 12-modda)
- Muloyim ibora: “Har bir oila haqidagi ma’lumot maxfiy, uni hech kim bilan muhokama qilmayman — siz haqingizda ham shunday”
- Qo‘shnining xavotiri bo‘lsa, eshiting: jismoniy shaxs bergan axborot muhtojlikni aniqlash asoslaridan biri (O‘RQ-1159, 23-modda) — axborot olasiz, lekin bermaysiz
- Mahalla yig‘ini, xizmat chati, do‘stlar davrasida ham shu qoida: mijoz haqida gap — faqat ish uchun va faqat vakolatli hamkasblar bilan

Maslahat Rad javobini qo‘pol emas, ishonch uyg‘otadigan qilib ayting: qo‘shni ham bilsinki, uning siri ham shunday saqlanadi.

5 MURAKKAB VAZIYATDA QAROR

Mahalla aholisi bir oilada yosh bolalar kun bo‘yi qarovsiz qolayotgani, ota-ona uyda kam bo‘lishi haqida xabar berdi. Harakatlaringiz?

- Xabarni jiddiy qabul qilib qayd etish: kim, qachon, nima dedi; jismoniy shaxslar axboroti muhtojlikni aniqlash asoslaridan biri (O‘RQ-1159, 23-modda)
- Tez baholash: uyga tashrif; bolalarning xavfsizligi, ovqati, sog‘lig‘i, maktab yoki bog‘cha; oilaning sharoiti va sabablar — ish, kasallik, yolg‘iz ota-ona
- Xavf darhol bo‘lsa, kutmaslik: roziliksiz shoshilinch yordam (O‘RQ-1159, 25-modda); vasiylik va homiylik organi (voyaga yetmaganlar uchun — “Inson” markazi, O‘RQ-364, 7-modda) va ichki ishlar organlarini darhol jalb qilish
- Bolalar hayoti, sog‘lig‘iga xavf yoki ularga qarov yo‘qligidan xabardor bo‘lsangiz, vasiylik va homiylik organiga ma’lum qilish shart (O‘RQ-139, 11-modda). Bu ota-ona bilan hukmsiz suhbat va birga reja tuzishni istisno etmaydi
- Hamkorlik: maktab, oilaviy poliklinika, mahalla — multidissiplinar guruhda (35-modda); faqat zarur ma’lumot almashiladi
- Prinsip — bolaning eng ustun manfaatlari (O‘RQ-139, 3-modda; BMT Bola huquqlari konvensiyasi); bolalarni oiladan ajratishning oldini olish — Agentlik yo‘nalishi (PF-82, 1-ilova, V)

Maslahat “Bu oilaning ichki ishi” degan javob — xato. Lekin ota-onani ayblashdan ham boshlamang: avval fakt va xavf.

KEYINGI QADAM

To‘liq nashrda

Shu sinov nashri yoqqan bo‘lsa — to‘liq kitobda xuddi shu formatda hammasi bor.

250 **Mavzu savoli**
5 blok, 25 mavzu — har biri izoh va manba bilan; Y1–Y3 turlari

33 **Keys tahlili**
30 ta vaziyat va 3 ta sinov keysi — besh qismli namunaviy javob bilan

3 **Sinov imtihoni**
50 test va 1 keys, 100 ball — jami 150 ta yangi test savoli

5 **To‘liq konspekt**
qonun moddalari, qaror bandlari, ish metodlari — har blok bo‘yicha

10 **Mashq bileti**
ishga qabul suhbati uchun 50 savol: javob rejasi va maslahat bilan

Lotin va kirill yozuvidagi alohida nashrlar — soff.uz saytidagi Kadextar Studio sahifasida.

CHOP ETISH UCHUN

Javob varaqasi

To‘g‘ri deb hisoblagan javobingiz doirachasini to‘liq bo‘yang. Boshlash va tugash vaqtini yozib qo‘ying.

F.I.SH.

SANA

BOSHLASH / TUGASH VAQTI

TO‘G‘RI JAVOBLAR: ___ / 25

01	A	B	C	D	
02	A	B	C	D	
03	A	B	C	D	
04	A	B	C	D	
05	A	B	C	D	
06	A	B	C	D	
07	A	B	C	D	
08	A	B	C	D	
09	A	B	C	D	
10	A	B	C	D	
11	A	B	C	D	
12	A	B	C	D	
13	A	B	C	D	
14	A	B	C	D	
15	A	B	C	D	
16	A	B	C	D	
17	A	B	C	D	
18	A	B	C	D	
19	A	B	C	D	
20	A	B	C	D	
21	A	B	C	D	
22	A	B	C	D	
23	A	B	C	D	
24	A	B	C	D	
25	A	B	C	D	

● Qonunchilik ● Ijtimoiy himoya tizimi ● Maqsadli guruhlar ● Ish metodlari ● Etika va amaliyot



KADEXTAR

STUDIO

Savol va takliflar uchun — soff.uz saytidagi Kadextar Studio sahifasi orqali yozing.

© 2026 Kadextar Studio. Faqat shaxsiy foydalanish uchun; tarqatish va qayta sotish taqiqlanadi. Savollar va keyslar rasmiy test bazasidan olinmagan — ular ochiq me'yoriy hujjatlar va ijtimoiy ish bo'yicha e'tirof etilgan manbalar asosidagi mualliflik mashqlari. 2026-yil oktabr holatiga.